

Oila tayanchi, jamiyat ustuni bo'lgan onalarimiz, ayollarimiz hayotdan rozi bo'lsa, butun xalqimiz hayotdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa, Yaratganimiz ham bizdan rozi bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil

8-mart

chorshanba

№ 10 (4600)

Postda Ha nocty

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

BAHORIY KAYFIYAT DILLARDA MEHMON



8-mart



*Malohatda tengi yo'q, sadoqatda yagona,
Ko'kdagi tanho hilol, minglab yulduz parvona,
Umr yo'ldosh, jon jigar, mo'tabar, suyuk ona,
Qalblar bahra olguvchi baxt quyoshidir ayol.*

*Yashasa ham dunyoda, bolam deya yashagan,
Bolasiga jon tikkan, gar og'risa qaqshagan,
Yig'lasa, dil o'rtanar, kulsa, olam yashnagan,
Sog'inch to'la ko'zlarning billur yoshidir ayol.*

*Payg'ambardek siylagan ko'ngil qo'ygan yorini,
Gard yuqtirmas sha'niga, saqlar nomus, orini,
Begim, deydi qimtinib, hadya etar borini,
Aslida bu hayotning chin naqqoshidir ayol.*

*Mehrning farishtasi, olam charog'boni u,
To'rt faslda ko'ngilning sarishta bog'boni u,
Umr – yo'l, karvon bo'lsa, boshida sarboni u,
Arzigay bosh egmoqqa, hayot boshidir ayol.*

BAHORİY KAYFIYAT DILLARDA MEHMON



Poytaxtimizdagi «Jar» sport-sog'lomlashtirish kompleksida vazirlik sohaviy xizmatlarida faoliyat yuritayotgan dilbar ayollarimiz, faxriy onaxonlarimiz hamda xizmat burchini bajarish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan xodimlarning oila a'zolari uchun bayram dasturxonini yozildi. Orkestr sadolari ostida boshlangan tadbir avvalida iste'fodagi podpolkovnik, «Sodiq xizmatlari uchun» medali sohibasi Nigora Jo'raboyevaning uzoq yillik fidoyi xizmatiga bag'ishlangan videorolik ishtirokchilar e'tiboriga havola etildi.

Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov sohamiz malikalarini go'zallik va nafosat ayyomi bilan samimiy tabriklab, jumladan, shunday dedi:

– So'nggi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mo'tabar onalarimizni, munis opa-singillarimizni ardoqlash, ularga zarur shart-sharoitlarni yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, xotin-qizlarning manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish hamda har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda mam-lakatimizda mehnat bilan band aholining

45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Respublika boshqaruvi tizimida ayollarning ulushi 33 foizdan oshdi. Ular orasida taniqli davlat va jamoat arboblari, o'nlab senator va deputatlar, vazir va hokimlar, O'zbekiston Qahramonlari, akademik va professorlar, Xalq shoirlari, Xalq o'qituvchilari, Xalq artistlari, nodavlat tashkilotlarning faol vakillari borligi barchamizni quvontiradi.

Ayni paytda barcha davlat idoralari kabi, ichki ishlar organlari tizimida ham ayollarning rolini kuchaytirish, ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tizimda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning soni yildan-yilga oshib, ular jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida erkaklar bilan yelkama-yelka xizmat qilmoqda.

Yurtimizning barcha hududlarida xotin-qizlar masalalari bo'yicha ayol inspektorlar faoliyati yo'lga qo'yilib, ular bevosita mahallaning o'zida ayollarning muammolarini o'rganib, ularga yaqindan yordam ko'rsatmoqda. Birgina o'tgan yilning o'zida 50 ming nafarga yaqin xotin-qizlar tazyiq va zo'rovonlikdan himoya qilinib, 25 mingdan ortiq oilalar yarashtirildi, 21 mingga yaqin oilaviy nizolar bartaraf etildi. Shuningdek, tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlar tomonidan 2 mingga yaqin jinoyat ishi tergov qilinib, 3 mingdan ortiq shaxsga nisbatan jazo muqarrarligi ta'minlandi. Hududlarda 4 mingdan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, turli ko'rik-tanlovlar va sport musobaqalari o'tkazildi.

Bundan tashqari, so'nggi uch yilda ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan 84 nafar xotin-qiz turli rahbarlik lavozimlariga tayinlandi, 17 nafar ayolga polkovnik, 230 nafariga podpolkovnik, 250 nafariga esa mayor maxsus unvonlari berildi. Hozirda 11 nafar fan nomzodi, 12 nafar falsafa doktori (PhD), 10 nafar fan doktori tizimda xizmat olib boryapti. Shu bilan birga, 8 nafar xizmat ko'rsatgan sportchi, 23 nafar sport ustasi hamda 9 nafar sport ustaligiga nomzod, 4 nafar Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori faoliyat olib bormoqda. O'tgan yilning o'zida 7 nafar xodima davlat mukofotiga sazovor bo'ldi, 3 mingdan ortiq xotin-qizlarimiz idoraviy mukofotlar bilan rag'batlantirildi.

Tantanali tadbirda tizimdagi ko'p yillik samarali mehnati, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik va istiqloq g'oyalari sa-



doqat ruhida tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo'shgan hamda 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bir guruh ayollar vazirlikning idoraviy mukofotlari bilan tantanali ravishda taqdirlandi. Rag'batlantirish tariqasida muddatidan oldin hamda bir pog'ona yuqori navbatdagi maxsus unvonlar ham o'z egalariga topshirildi.

– Bugun hayotimdagi eng quvonchli kunglardan biri. Ichki ishlar vaziridan mukofot olish menga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishladi, – deydi II darajali «Benuqson xizmatlari uchun» ko'krak nishoni sohibasi, IIV Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, podpolkovnik Ozoda Tolibova. – Davlatimiz



tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, jonajon yurtimiz istiqboli uchun yanada g'ayrat va shijoat bilan xizmat qilishga astoydil bel bog'ladim.

– Uzoq yillik xizmatlarim inobatga olinib, mukofotga loyiq topilganimdan behad mamnunman, – deydi IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi katta inspektori, mayor Gulbahor Amantayeva. – Muddatidan oldin «podpolkovnik» maxsus unvoni berilishi esa meni yanada mas'uliyat bilan xizmat qilishga undaydi.

IIV Madaniyat saroyi Ashula va raqs ansambli xonandalari tomonidan ijro etilgan dilrabo kuy-qo'shiqlar bayram tadbirining yanada fayzli o'tishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Mixli SAFAROV,
«Postda» muxbiri.
Abu KENJAYEV olgan suratlar.



ЮКСАК МУКОФОТ МУБОРАК!

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «8 март – Халқаро хотин-қизлар куни муносабати билан мукофотлаш тўғрисида»ги Фармони билан Самарқанд вилояти Каттақўрғон шаҳар ички ишлар бўлимининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлими хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори, подполковник **Ахатова Замира Рустамовна «Содиқ хизматлари учун»** медали билан мукофотланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Зулфия номидаги Давлат мукофоти билан тақдирлаш тўғрисида»ги қарори билан Ички ишлар вазирлиги оталиғидаги Тошкент шаҳрида жойлашган 77-ихтисослаштирилган кўзи ожизлар мактаб-интернати 10-синф ўқувчиси **Тулибоева Садоқат Акмурат қизи** ушбу нуфузли мукофот билан тақдирланди.

УНВОН МУБОРАК!



Қорақалпоғистон Республикаси ИИВ Тезкор-қидирув хизмати бўлим бошлиғи, подполковник **Курбанбаева Умида Турсинбаевнага** навбатдаги «полковник» махсус унвони берилди.

Ҳамкасбимизни унвон билан табриклар, эл-юрт осойишталигини асрашдек шарафли ва масъулиятли хизмат фаолиятида муваффақият тилаймиз.

ТАЙИНЛАНДИЛАР



**Подполковник
Хужанов Завқиддин
Муродинович**

Қашқадарё вилояти Ички ишлар бошқармаси бошлиғининг ўринбосари – Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш хизмати бошлиғи лавозимига



**Подполковник
Садиков Шокиржон
Саламжонович**

Навоий вилояти Ички ишлар бошқармаси бошлиғининг ўринбосари – Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш хизмати бошлиғи вази фасини бажарувчи лавозимига



МЕҲРИДАРЁ УСТОЗНИ ЙЎҚЛАБ

Илм ва уни талаб қилишнинг фазилати нақадар улуг бўлса, илм ўргатиш, яъни устозлик қилишнинг фазилати ундан-да буюк. Зеро, илм ўқитувчининг саъй-ҳаракати, тинимсиз меҳнати ва матонати билан эгалланади.

Пойтахтнинг Олмазор тумани ИИОФМБ Ташкилий бўлими катта инспектори, катта лейтенант Жасурбек Йўлдошев ҳам Тошкент ислом университетиде таҳсил олган йилларда ўқитувчиларнинг йўл-йўриқларига амал қилиб кам бўлмади. Билимини бойитиб, мақсади сари олға интилди.

У 8 март – Халқаро хотин-қизлар куни арафасида таълим берган муаллималарини табриклар учун Ўзбекистон халқаро ислом академиясига борди. Шогирдини кўрган Зебо Қосимованинг кўзларида қувонч акс этди. Устоз-шогирд дилдан суҳбат қурди. Жасурбекнинг талабалик йилларини



эслашиб, қизиқарли воқеаларни ёдга олишди.

– Жасурбек тиришқоқ ва интилувчан талабаларимдан эди, – дейди Зебохон опа. – Мана, бугун унинг бахту камолини кўриб, ич-ичимдан севиниб турибман. Энг ичкисини ишлар органлари либоси ярашганини қаранг. Ҳақиқий юрт посбони, тинчлигимиз кўриқчиси. Мен у билан фахрланаман.

– Мен мана шундай меҳридарё устозлардан таълим олганимдан

мамнунман, – дейди катта лейтенант Жасурбек Йўлдошев. – Олган билимларимиз, уларнинг берган ўғитлари ҳаётда ҳам, хизмат фаолиятимда ҳам асқатмоқда. Фурсатдан фойдаланиб, онамни, устозларимни, соҳада эркаклар билан бир сафда хизмат қилаётган аёлларни ва бутун юртимиз хотин-қизларини самимий табриклайман!

**Сарвар СОБИРОВ,
«Postda» муҳбири.**

Тошкент шаҳри.

МУКОФОТЛАР МУБОРАК, АЗИЗ ҲАМКАСБЛАР!

ҚУТЛОВ



Бу йил гўзаллик ва яшариш фасли бўлмиш баҳор бизнинг ижодий жамоамиз учун хосиятли, омадли келди. Бойси, жамият ва давлат ҳаётида фаоллик ва ташаббускорлик кўрсатган, соғлом ва баркамол авлодни вояга етказиш, ватанпарварлик ва истиқлол ғояларига садоқат руҳида тарбиялаш, жойларда маънавий-ахлоқий муҳитни соғломлаштириш ва миллий қадриятларимизни кенг тарғиб этиш борасида ибратли фаолият олиб бораётгани учун «**Мўтабар аёл**» кўкрак нишони билан тақдирланганлар орасида таҳририятимиз Бош муҳаррири, полковник Бернора Садикова ҳам бор.


Шунингдек, мамлакатимизда журналист аёлларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, ижодий салоҳиятини намоён қилишига кўмаклашиш, эришган ютуқларини эътироф этиш мақсадида Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси томонидан ўтказиб келинаётган «**Атиргул**» танловида таҳририятимизнинг Навоий вилояти бўйича муҳбири Маҳлиё Холова «**Ҳарбий-ватанпарварлик мавзуси энг яхши ёритилган материаллари учун**» номинацияси бўйича ғолиб деб топилди.

Ҳамкасбларимизни мукофотлар билан самимий табриклаймиз. Уларга сихат-саломатлик, оилавий хотиржамлик, келгуси фаолиятида янгидан-янги муваффақиятлар, ижодий баркамоллик тилаб қоламиз.



Женщина – воплощение преданности

«ЛЮБЛЮ СВОЮ ПРОФЕССИЮ»



Женщины-сотрудницы не только служат на благо общества и народа, но и несут ответственность за свою семью и детей. Они настоящие героини своего времени.

Старший инспектор по вопросам женщин ОВД Риштанского района подполковник Гульноза Зиепова – целеустремленный и жизнерадостный человек. Окончив в 2009 году Академию МВД Республики Узбекистан, начала служить

в следственном подразделении. За 10 лет работы приобрела большой опыт.

В 2019 году, когда по инициативе Президента нашей страны была введена должность инспектора по вопросам женщин, Гульнозу, с учетом ее знаний и опыта, перевели на эту должность.

Решение оказалось верным. Сотрудница оправдывает оказанное руководством доверие, на протяжении четырех лет эффективно решая проблемы жительниц Риштанского района, проводя профилактическую работу по предупреждению преступлений и правонарушений.

В 71 махалле района проживают 47 645 женщин старше 30 лет. Подполков-

ник Г. Зиепова регулярно общается с ними, изучает их нужды. Особое внимание уделяет работе с теми, кто находится на учете службы пробации. Цель – не допустить повторного совершения правонарушений.

Старшего инспектора всегда можно заметить на улицах района. Например, за прошедший период текущего года во взаимодействии с ответственными лицами из отдела по делам семьи и женщин, общественными активистами было изучено состояние 75 семей, состоящих на учете как неблагополучные, с ними проведены профилактические мероприятия. Состоялись индивидуальные беседы с 122 женщинами. Вовремя разрешились конфликты в 12 семьях, находившихся на грани развода.

Проводились профилактические беседы с 88 женщинами, которые обратились в гражданский суд по различным вопросам. Была

оказана материальная помощь 14 малообеспеченным семьям, а пяти женщинам – содействие в получении ID-карты.

10 женщинам, подвергшимся притеснениям и насилию, были выданы охранные ордера.

– Меня часто спрашивают: «Не сложно ли служить в органах внутренних дел?» Уверенно отвечаю: «Если любишь свою работу, то не сложно», – говорит старший инспектор. – Я мечтала об этой профессии с детства. Вот уже 14 лет служу в органах правопорядка. Тяготы службы не ощущаются. Наоборот, горжусь тем, что нужна народу и приношу пользу людям, благодарность которых придает мне силы.

Гульноза Зиепова успешна и в роли супруги. Вместе с мужем они воспитывают троих замечательных детей.

Абдувосит СИДИКОВ,
корреспондент
«Postda».

Ферганская область.

Молодежь – наше будущее

ОНА НЕ ПЕРЕСТАЕТ УЧИТЬСЯ

Лейтенант Зумрад Жамуротова служит старшим инспектором по вопросам женщин ОПП ОВД Бахмальского района Джизакской области. Она делает все для того, чтобы в семьях прекратились ссоры и конфликты, чтобы жительницы вверенной территории, нарушившие закон, встали на путь исправления, а те, кто потенциально может совершить правонарушение, осознали невозможность подобных действий.

Как-то по долгу службы героиня очерка обходила с проверкой лиц, вернувшихся из мест лишения свободы. Почувствовав неприязнь и растерянность одной из них, она решила не напоминать лишний раз о том, что ранило женщину.

Наоборот, сотрудница заинтересовалась, нужна ли ей социальная поддержка, и сообщила, что, при желании, может устроить ее на работу в швейное предприятие, расположенное в махалле Фидокор, а также посоветовала зарегистрироваться в «Женской тетради», чтобы ее могли обеспечить рабочими инструментами. Уходя, лейтенант оставила номер телефона, чтобы с ней можно было связаться, если возникнет какая-либо проблема.

Такой человеческий подход к оступившимся людям вселяет в их сердца надежду на нормальную жизнь. З. Жамуротова родилась в

1997 году в Бахмальском районе Джизакской области. В 2021 году окончила Академию МВД. Служебную деятельность начала в должности инспектора-психолога группы по работе с несовершеннолетними отделением по делам несовершеннолетних ОВД Бахмальского района. За недолгий срок службы старшим инспектором по вопросам женщин – с января прошлого года – смогла уладить конфликты в 175 семьях, изучила обстановку в 691 доме, выявила 353 социальные проблемы, из которых 326 были решены положительно. 229 женщинам были предоставлены охранные ордера. Кстати, Зумрад активно участвует в спортивных соревнованиях, которые проводятся среди сотрудников органов внутренних дел. Так, 24–25



июня 2022 года в Андижане прошли соревнования под девизом: «Молодежь Нового Узбекистана, объединимся!». Сборная ОВД Джизакской области, в составе которой была и Зумрад Жамуротова, заняла 3-е место. Вместе с товарищами по команде она также заняла 2-е место в областном турнире по волейболу, который прошел 7 сентября прошлого года в Бухаре. Эффективная служба не остается без внимания. Так, в 2022 году она была награждена почетной грамотой МВД и памятными на-

ручными часами. Несмотря на достижения и успехи, героиня очерка не перестает учиться и спрашивать совета у более опытных коллег. Она привыкла доводить дело до конца, выполнять возложенные на нее обязанности безупречно, что положительно сказывается на качестве службы. За это ее уважает личный состав ОВД Бахмальского района и жительницы махалли.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
корреспондент «Postda».
Джизакская область.





Аёл билан олам мунаввар

ОРЗУСИ УШАЛГАН АЁЛЛАР




Зухра Алиева

Жонажон Ватанимизда ҳаётимиз мазмуни бўлмиш дилбар опа-сингилларимизни эъзозлаш, уларнинг яшаш шароитларини яхшилаш ҳамда ижтимоий ҳимоясини янада кучайтириш давлатимиз сиёсатининг муҳим йўналишларидан бирига айланган десак, асло янглишмаган бўламиз. Чунки латофатли аёлларимиз нафақат давлат ва жамият ҳаётида, балки оилада ҳам ўз ўрнига эга бўлиб, ҳаётимизнинг гуллаб-яшнашида муносиб ҳисса қўшиб келаётир.

Мамлакатимизнинг барча жабҳаларида бўлгани каби, ИИБ Малака ошириш институтида ҳам

бир гуруҳ соҳамиз маликалари фидойилик билан хизмат қилмоқда. Подполковниклар Зухра Алиева ҳамда Марварид Нарзиева шулар сирасидандир. Эркаклар билан бир сафда елкама-елка туриб, юрт осойишталиги йўлида матонат кўрсатаётган бу инсонлар ўз вазифасини сидқидилдан адо этишяпти. Жонқуярлиги ва уддабуронлиги билан сафдошларига намуна бўлиб келаётган ходимлар таълим муассасасининг турли лавозимларида фаолият юритиб, ўзларининг нималарга қодир эканликларини барчага намойиш этишмоқда.

Ўз мухбиримиз.



Марварид Нарзиева



Фахрийлар – фахримиз

ХОДИМЛАРНИНГ ЗУХРА ОПАСИ

Зухранинг болалиги Гулистондаги маҳаллада ўтди. Отаси сутни қайта ишлаш заводида ишлар, кенжа қизини жуда яхши кўрарди. У болалигидан математика фанидан иқтидорли эканини намоеён қилди. Бироқ ҳамма ни хайрон қолдириб, ички ишлар органи ходими бўлиш орзусида яшай бошлади. Акаларидан бири йўл ҳаракати хавфсизлиги хизматида ишлар, хизматдан келганида, дарҳол унинг бош кийимини олиб, кийиб оларди.

1983 йили мактабни битиргач, Янгиер шаҳридаги қурилиш техникумининг бухгалтерия факультетига ўқишга кириб, у ерни имтиёзли диплом билан тугатгани қўл келиб, орадан бир ой ўтмай, вилоят Ички ишлар бошқармаси бухгалтерия бўлимига ишга қабул қилинди.

Устозлари – молия бўлими бошлиғи, полковник Фанибек Йўлдошев, бош ҳисобчи, капитан Жўрабек Жалойировлар унга ғамхўрлик қилишди.

1989 йил Зухра Исоқуловага сержант унвонини беришди. Ниҳоят, у ҳам бир пайтлар орзу қилганидек, фуражқасини бошига қўндириб, уйга кириб келди. Отаси, онасини яна бир бор хурсанд қилди. Бу пайтда у аллақачон оилали эди. Турмуш ўртоғи билан икки нафар ўғилни тарбиялай бошлашган, оилавий ташвишларга ҳам улгуришга ҳаракат қиларди.

ИИБ Академиясига сиртдан ўқишга қабул қилинганида унинг ташвиши янада кўпайди. Уддабурон қиз ҳаммасига улгурди. Ҳаш-паш



дегунча елкасида лейтенант унвонини англатувчи юлдузлар порлади. Лавозими ҳам ўзгарди. Сирдарё вилояти ИИБнинг Ёнғин хавфсизлиги бошқармаси алоқа бўлимига ишга ўтди. Вилоятнинг барча ҳудудларидан ёнғин тўғрисидаги хабар биринчи шу ерга етиб келар, шундан кейингина ўт ўчириш бригадаларига буйруқ бериларди. Иш жуда ҳам қизгин

эди. Лекин Зухра бу ерда узоқ қолмади. Уни яна молия бўлимига ишга қайтариб олишди. Сирдарё вилояти ИИБ Қўриқлаш бўлимида бош бухгалтер, вилоят ИИБ Назорат-тафтиш бўлимида тафтишчи лавозимларида ҳалол, ўз ишига садоқатли, ҳисоб-китобга уста эканлигини намоеён этди.

Зухра Исоқулованинг обрўси, фаоллиги эътиборга олиниб, қўшимча равишда вилоят ИИБ хотин-қизлар кўмитаси раиси вазифаси ҳам юкланди. Бу анчагина масъулиятли вазифа эди. Унинг ташаббуси билан кўплаб маданий, спорт тадбирлари, учрашувлар, давра суҳбатлари уюштирила бошланди. Кўплаб аёлларнинг оилавий аҳволи ўрганилди, айримларига кўмак берилиб, маънан қўллаб-қувватланди. Натижада кўплаб ходимларнинг Зухра опасига айланди. Шунинг ўзи энг катта мукофот эди. Ахир инсон учун элнинг эъзозидан, эътирофидан бўлишдан ортиқ бахт борми?!

Истеъфодаги майор Зухра Исоқулова ана шундай бахтга сазовор бўлган инсон. Ўғиллари ҳунарманд уста. Ўз бахтини топишган. Опа неваралари қуршовида шодон ҳаёт кечирмоқда. Шогирдлари, ҳамкасблари доим йўқлаб туришади. Энг муҳими, ҳаётини беҳуда сарфламагани, доим эл осойишталиги, тинчлиги йўлида ҳалол хизмат қилганидан фахрланади.

Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ,
«Postda» мухбири.

Сирдарё вилояти.

BUYUKLAR AYOLLAR HAQIDA

Ayollarga imkon qadar iliq muomalada bo'lishga harakat qildim.

Amir TEMUR.

Onangdan bosh tovlama, oshmasin dardi, Sharaf toji erur oyog'in gardi.

Abdurahmon JOMIY.

Onalarning oyog'i ostidadur

Ravzai jannatu jinon bog'i.

Ravza bog'i visolin istar ersang,

Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.

Alisher NAVOIY.



Bu yorug' olamda Vatan bittadir, Bittadir dunyoda Ona degan nom.

Abdulla ORIPOV.

✓ Год заботы о человеке и качественного образования

По инициативе ГУВД столицы на базе Центра социально-правовой помощи несовершеннолетним были организованы месячные учебные курсы для более 50 детей из малообеспеченных семей, нуждающихся в социально-правовой помощи.

В целях организации содержательного досуга, популяризации национальных спортивных игр и видов спорта, повышения социальной активности юношей и девушек, раскрытия их талантов и способностей, поощрения инициатив проводились спортивные соревнования, интеллектуальные игры и конкурсы.

С каждым ребенком и их родителями сотрудники Центра проводили индивидуальные профилактические беседы, психологические тренинги, направленные на налаживание взаимоотношений со сверстниками и взрослыми. Проведенная работа хорошо сказалась как на детях, так и на их родителях.

Отдельное внимание было уделено организации досуга детей с учетом их возрастных особенностей. Совместно с квалифицированными педагогами школы «Баркамол авлод» проводились занятия по родному языку и литературе, истории, рисованию и др. Мальчики участвовали в турнире по настольному теннису, а девочки занимались в кружках рукоделия и бисероплетения.

В рамках курсов были организованы походы в Парк Победы и Музей славы, парк развлечений и Океанариум.

Дети, проходящие специальный курс в Центре оказания социально-правовой помощи несовершеннолетним, участвовали в культурно-просветительском мероприятии «Две великие фигуры», в ходе которого они узнали много интересного о жизни и творчестве Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура. Педагоги школы «Баркамол авлод» провели с воспитанниками урок рисования и



организовали выставку их произведений. Сотрудники отдела по делам культуры Юнусабадского района организовали показательные уроки игры на дутаре, рубобе, доире и фортепиано. Актеры театра и кино Лола Эльтаева, Нодира Махмудова,

Мукаддас Халикова и Хосият Хусанова учили детей ораторскому искусству, читали стихи, делились интересными историями.

По окончании курсов детям были вручены сертификаты.

Соб. корр.

✓ Жизнь и судьба

ПРОФЕССИОНАЛ СВОЕГО ДЕЛА

Однажды у мудреца спросили, что дороже всего на свете?

Мудрец улыбнулся и ответил:

– Самое дорогое – не богатство, не сундуки, полные золота, не власть. Самое дорогое – это уважение людей, которое не купишь ни за какие сокровища мира.

Мудрец был прав: уважение окружающих можно заслужить только честным трудом, справедливостью и искренней любовью к Родине и народу...

Специалистом высокого уровня можно назвать майора в отставке Кибриё Зулуновну Матякубову, которая многие годы отдала любимой профессии, став одним из лучших медицинских специалистов в системе МВД Узбекистана. Что такое «лучший специалист»? Это исключительная работоспособность, бесценный опыт, стремление идти на шаг впереди остальных, компетентность и мастерство. Это дается с годами, и вместе с ними приходит всеобщий почет и уважение.

Тот, кто хорошо знает Кибриё Зулуновну, имел честь работать с ней и в годы ее становления как медицинского специалиста, и во времена, когда она занимала ответственные должности в медицинских подразделениях МВД Узбекистана, может рассказать, насколько она была трудолюбивой, внимательной, чуткой, тактичной, обладавшей бесконечным терпением. В этом была немалая заслуга ее наставника – предсе-

дателя ЦВВК МВД Узбекистана, заслуженного врача Узбекистана полковника Мухаббат Абдуллаевой, которая многому научила К. Матякубову.



За годы профессиональной деятельности героиня очерка занимала ряд ответственных постов, среди которых: главный врач-офтальмолог Центральной поликлиники МВД Узбекистана, заместитель начальника Медицинского отдела УВД Ташкентской области, председатель Окружной военно-врачебной комиссии ГУВД столицы. По отзывам ее коллег, она трудилась без устали, скрупулезно и тщательно подходила к вопросу соответствия кандидатов на службу в органах внутренних дел, учитывая каждый нюанс, риски при возникновении той или иной ситуации, и

прежде всего вопросов здоровья, физического состояния. Во многом благодаря ее профессионализму ряды органов внутренних дел пополнялись сотрудниками, способными в полной мере выполнять свои служебные обязанности. В 1992 году Кибриё Матякубова вышла на заслуженный отдых, оставив после себя немало талантливых учеников и последователей.

– Кибриё Зулуновна – замечательный специалист, отзывчивый, и в то же время требовательный руководитель, никогда и никому не отказывала в помощи, – вспоминает Алла Коломина, которая ныне живет в Российской Федерации, а в бытность была врачом-психиатром в ОВВК ГУВД г. Ташкента. – Работать с ней было почетно и интересно. Кибриё Зулуновна обладала уникальными знаниями, давала ценные советы, и сегодня, по прошествии лет, мы общаемся по телефону. Очень ее уважаю, люблю и скучаю!

Под руководством К. Матякубовой плодотворно работали Бэлла Табакман, Муза Махмудова и другие талантливые медицинские специалисты, оставившие заметный след в истории органов внутренних дел.

Несмотря на солидный возраст, Кибриё Зулуновна не отдалается от активной жизни, общается с бывшими коллегами и учениками, отдает частичку тепла и любви семье и близким людям.

Георгий АНДРЕЕВ.





8 mart – Xalqaro хотин-қизлар куни

ҲАМ ТАЛАБЧАН, ҲАМ ИЗЛАНУВЧАН

Тошкент вилояти ИИББ ва унинг қўйи тизимларида халқимиз тинчлик-осойишталигини таъминлашдек ғоят шарафли ва масъулиятли вазифани ғайрат-шижоат билан адо этиб келаётган аёллар ҳам кўпчиликини ташкил этади.


Вилоят ИИББ Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бошқармаси бошлиғи ўринбосари, подполковник Шахноза Содиқова, Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш хизмати бошлиғи ўринбосари, катта лейтенант Моҳира Собирова, Оққўрғон

тумани ИИБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори, майор Дилдора Файзуллаева, Қибрай тумани ИИБ Пробация бўлими инспектори, майор Элмира Асқарова, вилоят ЙХҲБ канцелярия бошлиғи, сержант Надежда Кашапова ҳамда ППХ ва ЖТСБ сафдор

ходими, сафдор Хуршида Ботирова сингари кўплаб меҳнатсевар ходималарни фахр ва ифтихор билан тилга олишимиз мумкин.

Улар самарали хизмат қилиши учун барча шарт-шароит ва имкониятлар яратилган. Ҳам талабчан, ҳам изланувчан, асосийси, тартиб-интизомга риоя этган ҳолда, ўз вазифасини сидқидилдан бажараётган соҳамиз малкалари фақатгина хизмат билан чекланиб қолмасдан, жамоат ишларида ҳам фаол қатнашиб, турли танлов ва мусобақаларда совриндорлар сафидан жой олмоқда.

Осуда ҳаётимизнинг хушёр ва довюрак посбонлари, ёшларнинг меҳрибон мураббийлари, оиласининг оқила ва доно тарбиячилари бўлмиш бундай гўзал фазилат эгалари билан ҳар қанча фахрлансак арзийди.



«Шуҳрат» медали соҳибаси, подполковник Шахноза Содиқова.

Ҳозирда бу латофатли аёлларнинг фарзандлари ҳам таълим муассасаларига имтиёзли равишда ўқишга кириб, таҳсил олаётир. Шунингдек, ўз соҳасининг билимдони бўлган бу аёлларга, хизмат ва имтиёзли ипотека кредитлари асосида уй-жойлар ҳам берилди.

– Аёл ходимларга кўрсатилаётган бундай ҳурмат-эҳтиром ва қадр-қиммат

учун вазирлигимиз ҳамда вилоят ИИББ раҳбариятига миннатдорлик билдирамиз, – дейди подполковник Ш. Содиқова. – Ички ишлар органлари тизимидаги ислохотларни амалга оширишда, шунингдек, соҳамиз ривожини йўлида хизмат қилаётганимиздан беҳад мамнунмиз.

Михли САФАРОВ,
«Postda» мухбири.
Тошкент вилояти.



Суратда: ўнгдан майор Дилдора Файзуллаева, катта лейтенант Моҳира Собирова ҳамда сафдор Хуршида Ботирова.

«YASHIL MAKON» – AMALDA



Yaqinda Buxoro shahridagi «Shirbudin» marosimlar uyi ro'parasidagi maydonda «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida tadbir tashkil etildi. Tadbirda viloyat hokimi B.Zaripov, viloyat IIB boshlig'i, polkovnik M.Miralimov, sektor rahbarlari hamda boshqa davlat va jamoat tashkiloti xodimlari qatnashdi. Tadbir doirasida 500 tup manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning bahor mavsumida viloyatda 9 million 668 ming dona manzarali, mevali va boshqa turdagi ko'chatlarni ekish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqilgan. Tadbirlar jadallik bilan davom ettirilmoqda.

Buxoro viloyati IIB
Axborot xizmati.

ҚАТЪИЯТЛИ АЙБИБИ

Одатда ўз аҳдидан қайтмайдиган, собитқадам кишиларни қатъиятли, деймиз. Қаҳрамонимиз Айбиби ҳам ана шундай аҳдига содиқ инсонлар тоифасидан.

Ўн ёшидаёқ каратэ билан шуғулланган Айбиби, 16 йилдирки, севимли машғулотини ташлаб қўйгани йўқ. Қайтанга узоқ олиб борилган машқлар, меҳнат, чидам ва матонати уни ушбу йўналишда кўплаб ютуқлар сари етаклагани рост.

– Аслида спортга мени Ойнахол момом ундаган, – дейди Термиз тумани ИИБ ХПБ Вояга етмаганлар ва ёшлар билан ишлаш гуруҳи катта инспектори, лейтенант Айбиби Аҳмедова. – Қолаверса, отамнинг курашчи бўлгани менга янаям турт-



ки бўлган. Каратэга боргач, илк мусобақадаёқ голиб бўлганим эсимда. Бу катта мотивация бўлди. Аммо ундан кейин кетма-кет уч марта учраган мағлубиятим бу мотивацияни сўндирди. Бироқ момом «Сен жаҳон чемпиони бўлишинг керак. Токи бунга эришмагунингча ҳаракатдан тўхтамайман деб менга сўз бер» дегани юрагимга чўғ ташлади. Шундан сўнг спорт ҳаётим мазмунига айланди.

Ҳа, Айбибининг спортда катта муваффақиятларга эришишида марҳум бувиси ҳамда уни кўллаб-қувватловчи ота-онасининг ҳиссаси катта. Уларнинг ишончини оқлаш учун ҳам бор имкониятини ишга солади.

Қаҳрамонимиз 2011–2013 йиллардаёқ каратэ бўйича 3 марта Ўзбекистон чемпиони бўлди. 2017 йилда эса Осиё чемпионлигига эришди. 2022 йилдан бошлаб муай-тай билан ҳам шуғулланишни бошлади. Ўша йили Тошкентда бўлиб ўтган мамлакат кубоги ҳамда декабрь ойида Хоразмда ўтказилган халқаро турнирда муайтай бўйича



голибликни қўлга киритди. Ҳозир март ойида ўтказиладиган жаҳон чемпионати саралаш босқичида қатнашиш учун ҳозирлик кўрмоқда.

– Муаммолар қуйида яққолроқ кўринади ва бу ўз соҳамда тажриба тўплашимга ёрдам беради, – дейди Айбиби. – Болаларнинг тақдирида ижобий бурилиш яшаш учун бор имкониятни ишга соламан. Аксарият болаларда ўзига бўлган ишонч етишмайди. Бу борада спорт энг яхши кўмакчи экани тажрибамдан аён. Шу боис уларни спортга қизиқтиришга, керак бўлса, машғулотларимга олиб боришга уринаман.

Қатъият билан бирга Айбибида фидойилик, ўзгалар учун қайғуришдек ғамхўрликни ҳам кўриш мумкин. Буларнинг барчаси унинг қалби гўзал инсонлигига ишора.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
«Postda» мухбири.

Сурхондарё вилояти.



Кинология хизмати

АНВАР ВА «ГЕРДА»

Ички ишлар органларида хизматга кирганида Анвар Исроилов кинолог бўлишни хаёлига ҳам келтирмаганди. Бахмал туманининг Чайиш қишлоғида туғилиб ўсган йигит 2009 йили Зомин тумани ИИБ ҳузуридаги туманлараро қўриқлаш бўлинмаси милиционери лавозимида иш бошлади. Фаолият жараёнида тез-тез хизмат итлари билан ишлашига тўғри келди ва унда кинология соҳасига ҳавас уйғонди.

Ниятинг – йўлдошинг, деганларидек 2015 йили у Жиззах вилояти ИИБ ППХ ва ЖТСБ кинология хизматига инструктор-кинолог лавозимида қабул қилинди. Ўша йили ИИБ Махсус операцияларни мувофиқлаштириш бошқармасининг махсус тайёргарлик ўқув марказида ўқув курсини тамомлади.

Қаҳрамонимиз бугун тўрт оёқли ҳамроҳи – «Герда» билан ҳудудда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, жиноятларни «иссиқ изида» фош этишда жонбозлик кўрсатиб келмоқда.

– Жониворларни ўргатиш узлуксиз ва тизимли амалга оширилиши керак. Негаки, 3–4 кун машқ қилдирилмаса, эгалланган



кўникмалар унутилади, – дейди сафдор А.Исроилов. – Қолаверса, биз ҳам жисмоний ва жанговар тайёргарлигимизни мунтазам ошириб боришимиз зарур. Чунки томонлардан бирининг кучсизлиги ҳар иккисининг фаолиятига салбий таъсир кўрсатади.

Вилоят ИИБ ЖТСБ Кинология бўлинмаси инструктор-кинологи, сафдор Анвар Исроилов мунтазам равишда кўл жанги ҳамда тўсинда тортилиш билан шуғулланади, ҳар куни тонгда югуришни ҳам қанда қилмайди. Табиийки, сафдорнинг ўз

устида тинимсиз ишлаши ҳамда хизмат итини тайёрлаш борасидаги саъй-ҳаракатлари бесамар кетмаяпти. Чунончи, 2018 йили ички ишлар органлари кинологлари ўртасида ўтказилган кўпкураш мусобақасида иккинчи, 2020 йили ташкил этилган мусобақада эса учинчи ўринни эгаллади. 2021 йили ўтказилган «Аълочи кинолог» кўрик-танловида II даражали диплом соҳибига айланди. 2022 йил ҳам омадли келиб, унга «III тоифали кинолог» кўрак нишони топширилди. Ўтган йили хизмат ити ёрдамида 5 та жиноятни очишга эришди.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
«Postda» мухбири.
Жиззах вилояти.



Профилактика хизмати

УНИВЕРСИТЕТДА ҲАММАЁҚ ТИНЧ

Талаба ёшлар ўртасида жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш мақсадида Фарғона давлат университетида икки нафар профилактика инспектори хизмат қилмоқда.

– Университетда профилактика инспектори бўлиб ишлайдиган ходим ҳар томонлама билимли, тажрибали, ёшлар билан тил топиша оладиган салоҳиятга эга бўлиши керак, – дейди Фарғона шаҳар ИИОФМБ бошлиғи ўринбосари, подполковник Фарҳоджон Эргашев. – Кўп йиллик тажрибага эга подполковник Матлубахон Камолова ва капитан Ғайратжон Мирзаев бугун ўзларига билдирилган ишонччи оқлаш учун астойдил хизмат қилишмоқда.



Профилактика инспекторларини университет ҳудудидаги талабалар тураржойида учратдик.

Бу ерда улар ёшлар билан профилактик суҳбат ўтказишаётган экан.

– Университетнинг кундузги, кечки ва сиртки йўналишларида 32 минг нафарга яқин талаба таҳсил олади, – деди капитан Ғайратжон Мирзаев. – Жами 7 та талабалар ётоқхонаси мавжуд бўлиб, фаолиятимизнинг дастлабки кунидан ушбу масканларни тўлиқ ўрганиб чиқдик. Ҳар томонлама фаол, келажакда ички ишлар органларида ишлаш истагида бўлган ёшлар орасидан ўзимизга ёрдамчилар ҳам тайёрлаб боряпмиз. Улар жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда бизга кўмаклашади.

Айни пайтда олийгоҳда кундузги ва кечки таълим йўналишлари

бўйича 14 минг нафарга яқин қизлар таҳсил олмақда. Подполковник Матлубахон Камолова уларнинг чинакам маслаҳатгўйига айланган. Талаба қизлар иштирокида турли тадбирлар, давра суҳбатлари ташкил этади. Хулқ-атворида салбий ўзгариш бўлаётган, жиноят ва ҳуқуқбузарликка мойиллиги бор, кўп дарс қолдираётган талабалар аниқланса, дарҳол яқка тартибда профилактик ишларни ташкил этишга киришади.

Жорий йилнинг ўтган даврида университетда бевосита профилактика инспекторларининг ташаббуси ва иштирокида 20 дан зиёд турли тадбирлар ташкил этилди. Хусусан, «Кибермаконда содир этиладиган жиноятларга қарши курашиш ҳафталиги» доирасида тарғибот тадбири, «Аёллар жинояти – жамият ҳалокати», «Биз жиноятчиликка қаршимиз!», «Гиёҳвандликка қарши курашиш – долзарб масала» мавзусидаги давра суҳбатлари шулар жумласидандир.

Икки фидойи профилактика инспекторининг университет раҳбарияти билан ҳамкорликда олиб бораётган ишлари ижобий натижасини бера бошлади. Жорий йилнинг ўтган даврида университет ҳудудида ва талаба-ёшлар орасида жиноятчилик қайд этилмади.

Абдувосит СИДИҚОВ,
«Postda» мухбири.
Фарғона вилояти.



Капитан Ғайратжон Мирзаев ҳарбий таълим факультети курсанти Ҳасанбой Махсуталиев билан.



■ Самаркандская область

ВНИМАТЕЛЬНОСТЬ – КЛЮЧЕВОЕ КАЧЕСТВО

Один из лучших следователей Каттакурганского РОВД лейтенант Маъмуржон Рузимуродов служит в органах внутренних дел с 2021 года, сразу после окончания Академии МВД Республики Узбекистан.

– Мое решение быть следователем не случайно, это был взвешенный, обдуманный выбор, об этом мечтал еще в школьные годы. Меня поддержали родители, которым я очень благодарен, – признается М. Рузимуродов. – Хорошо помню первый выезд на место происшествия, первое уголовное дело. Оно было связано с кибермошенничеством. Один из молодых людей разместил объявление о том, что требуются деньги на операцию, и выложил фотографию умершего ребенка. К объявлению прикрепил свою пластиковую карту, куда с момента публикации поступило более 95 млн сумов. Найти мошенника удалось по номеру банковской карты. Сейчас парень отбывает срок.

Особую радость герою повествования доставляет поимка преступников по горячим следам, ведь на

счету каждая минута, поэтому телефон следователя всегда в зоне доступа. Маъмуржон признался: чтобы раскрыть очередное дело, иногда приходится не спать ночами, к тому же большинство тяжких и особо тяжких преступлений совершается именно в ночное время суток.

– Самым тяжелым был первый год службы. Происходила адаптация: работа сутками, отсутствие выходных, ограниченное время для общения с родными. В этот же период пришло понимание того, как необходимо работать, чтобы служба была эффективной, – говорит лейтенант М. Рузимуродов. – А это важно, так как постоянно появляются новые виды преступлений, сами преступники становятся все хитрее, более тщательно готовятся и замечают следы, а значит, мы должны всегда быть на шаг впереди них.

На вопрос, какими качествами должен обладать следователь,



чтобы добиться успеха в работе, Маъмуржон Рузимуродов ответил: беспристрастность, усидчивость, терпение, объективность, так как расследование уголовных дел – трудоемкий процесс. Важно уметь слушать и акцентировать внимание

на мелочах, ведь следователь еще и психолог: многим становится легче, когда их слушает компетентный человек.

Замира БАЛТАЕВА,
корреспондент «На посту».
Фото автора.

■ Республика Каракалпакстан

ЧЕСТНЫЙ И САМООТВЕРЖЕННЫЙ ТРУД



– В 1990-е годы, когда обучалась в медицинском училище в городе Нукусе, на учебу ходила из дома сестры. Рядом с домом располагалось здание Медицинского отдела Министерства внутренних дел. Именно тогда впервые увидела медицинских работников в военной форме. В глубине души у меня зародился мечта – после окончания обучения трудиться здесь, – говорит медсестра медицинского отдела МВД Республики Каракалпакстан Гаухар Оразимбетова.

Г. Оразимбетова родом из Кегейлийского района. Еще в школьные годы она проявляла большой интерес к химии и биологии. После успешного окончания в 1994 году медучилища, начала трудовую деятельность в процедурном кабинете медотдела.

В период профессионального становления большую помощь ей оказывали сотрудницы с многолетним стажем работы, которые щедро делились знаниями и опытом, помогали и поддерживали в любой сложной ситуации. Вежливая, отзывчивая Гаухар Оразимбетова

заслужила искреннее уважение не только коллег, но и пациентов.

– Пандемия коронавируса, разразившаяся в 2020 году, стала для всех большим испытанием. Медицинские работники находились на переднем крае борьбы с этой болезнью. В комбинезонах, масках проводили процедуры, осуществляли обходы, оказывали помощь людям. Тогда еще раз убедилась в том, что правильно выбрала профессию, – делится Г. Оразимбетова.

Честный, самоотверженный труд оценивается по

достоинству. В 2022 году героиня очерка решением Президиума Жокаргы Кенеса Республики Каракалпакстан была отмечена нагрудным знаком «Ватан фидойиси».

Гаухар Оразимбетова вместе с супругом, Азизом, вырастили и воспитали троих детей – Ажиниёза, Анжелу и Динару.

– Старший сын, Ажиниёз, служит в рядах Национальной гвардии. Мы очень гордимся им. Дети – наше счастье.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
корреспондент
«На посту».



Меры поощрения, как правило, применяются:

объявление благодарности – в отношении сотрудника (группы сотрудников), соблюдавшего правила профессиональной культуры, успешно выполнившего поставленную задачу, приказ или поручение начальника; награждение ценным или памятным подарком либо денежное вознаграждение – в отношении сотрудника (группы сотрудников), соблюдавшего правила профессиональной культуры и требования служебной дисциплины, за достигнутые высокие результаты в служебной деятельности, образцовое выполнение служебных задач и безупречную службу, а также при увольнении в запас (отставку) и подведении итогов соревнования (соревнования);

награждение почетной грамотой – в отношении сотрудника (группы сотрудников), соблюдавшего правила профессиональной культуры и требования служебной дисциплины, за достигнутые высокие результаты в служебной деятельности, образцовое выполнение служебных задач и образцовую службу, а также при подведении итогов соревнования (соревнования) и успешном окончании обучения (учебного года)...

Из Кодекса профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников органов внутренних дел.





Ma'naviyat va ma'rifat darsi

NAVRO'Z – YANGILANISH VA YASHARISH AYYOMI

Ona zamin uzra ko'klam nafa-si taralib, qalb-larda o'zgacha orzi-qish, ko'tarinki kayfiyat, shod-u xurramlik va ezgu niyatlar butun borliqqa ko'chib, yangilanish, yasharish ayyomi – Navro'zi olam bilan hamohanglik kasb etadi. Ming yillar davomida ma'naviy hayotimizning ko'rk-u ziynati bo'lib kelayotgan bu fayziyob bayram kun bilan tunning tenglashuvi, kunlarning uzayib, bog'-u rog', dalalarga rizq-ro'z qadash, mehnatning boshlanishidir.

Tarixiy manbalarda «Yangi kun» ma'nosini beruvchi ushbu qadim va boqiy bayram hamda uning nishonlanishi haqida turli ma'lumotlar bor. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Firdavsiyning «Shohnoma», Umar Xayyomning «Navro'znoma» kabi asarlarida Navro'zni bayram sifatida nishonlash miloddan avvalgi VI–V asrlarda boshlanganiga oid ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

Navro'zning qahraton qishning qirovli kunlaridan keyin odamlar bahorning muattar havosidan to'yib nafas olayotgan pallada nishonlanishi zamirida ham katta ma'no mujassam. Ayniqsa, musaffo osmon uzra saxiy quyoshning charaqlab nur sochishi, qir-u adirlar yam-yashil o't-o'lanlar, boychechak-chuchmoma, lo-laqizg'aldoqlarga burkanib, yangi kun, bahorni olqishlayotgan qushlarning yoqimli ovozi har qanday inson ruhiyatiga ko'tarinki-

lik bag'ishlab, mehnat qilishga, yaratuvchanlik ishqi bilan yashashga chorlaydi.

Yosh-u qari birdek orziqib kutadigan va katta tantana bilan nishonlanadigan Navro'z bayrami umuminsoniy fazilatlar, milliylikka yo'g'rilgan urf-odatlar-u qadriyatlarimiz ifodasi yanglig' qalblarga olam-olam surur baxsh etadi. Sohibkor bog'bon-u dehqonlar, keksalar ko'klamning har daqiqasi qadrlanib, g'ayrat-shijoat bobida yoshlarga ibrat bo'lishadi. Ular bosh bo'lib qadagan har urug', har bir nihol ertangi kunga baraka, dasturxonlarga rizq-ro'z, el-u yurtga nasiba, farovon turmush omili bo'lib unadi, ko'kka bo'y cho'zadi.



Tabiatning yangilanishi bilan boshlanuvchi Navro'z qadimdan to bugunga qadar turli marosimlarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Xalq sayillari o'yin-kulgi, kurash, ko'pkari musobaqalari, teatr tomoshalari tashkil etiladi. Ayniqsa, beg'ubor osmon bag'rida bahoriy nasimlarga qonib, yengil parvoz qilgan varraklar, bolalarning qiy-chuvlari-yu shodon kulgulari tabiatning uyg'onishiga rang kiritadi, go'yo.



Chillak, qo'g'irchoq, arqon tortish, tosh ko'tarish va boshqa o'yinlarning zavqi esa o'zgacha. Atlas va adrasdan tikilgan milliy liboslaridagi

ko'klam taomlari ilik uzildi paytida kishilarga quvvat bo'lishi, darmondorilarga boyligi bilan zamonaviy tibbiyotda ham tan olinayotganini aytib o'tish joiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Navro'z oddiy bayram emas, balki xalqimizning tarixi, falsafasi, tushuncha-tasavvurlari, qadriyatlarini o'zida mujassam etgan, millat bilan ulg'ayib, millat bilan birga taraqqiy etgan va har jihatdan uning ong-u shuuriga singib ketgan ayyom. Zotan, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, «xalqimiz milliy yuksalish va milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan hozirgi vaqtda barcha ezgu qadriyat va an'analarimiz qatori Navro'z bayramining ham hayotimizdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda».

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, har yili xalqimizga xos azaliy urf-odatlar, qadriyatlarni tarannum etuvchi Navro'zi olam kishilarga ezgu amallar va yuraklarga shodlik-xurramlik ulashib kelaveradi. Jannatmonand diyorumizda osuda osmon ostida tinch-totuv umr kechiradigan har bir yurtdoshimiz ona tabiatning betakror, fusunkor ekanini ulug' ayyom kunlarida yana bir bor yurakdan his etadi. Tabiat uyg'onishi bilan insonlar qalbi, bahri dili ham ochilib, yangicha kuch-quvvat, g'ayrat-shijoat jo'sh uradi. Keksa-yu yosh o'zini borliqning ajralmas bir bo'lagi ekanini his etib, o'tayotgan har bir kunning qadriga yetishni anglaydi. Va barcha dillarda, tillarda ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiyning go'zal bayti takrorlanadi:

**Zulf-u ruxsor ila kominga
meni yetkursang,
Har turing qadr o'lubon,
har kuning o'lsin Navro'z.**

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
«Postda» muxbiri.**



bir-biridan chiroyli qizlar, beqasam to'nlar kiygan ko'rkam yigitlarning qiyofasida yangi kunning nashidasi ufurib turadi.

Aynan Navro'z kunlarida amalga oshiriladigan bunyodkorlik va obodonchilik ishlari, mehr-saxovat tadbirlari, insoniy fazilatlar boshqa vaqtdagi ezgu amallarga qaraganda yorqinroq namoyon bo'ladi. Ota-bobolarimizdan milliy qadriyat bo'lib kelayotgan ushbu bayramni asrab-avaylash va o'zimizning xayrli amallarimiz bilan yanada mazmunli davom ettirish bizning burchimizdir.

Navro'z haqida so'z ketganda, beixtiyor ushbu boqiy ayyomning shoh taomi – sumalak va uning tayyorlanishi bilan bog'liq rivoyatlar tilimizda tez-tez aylanadi. Bu rivoyatlar bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilish, jipslashuv, yaxshi-yomon kunlarda birga, sabr va irodali bo'lishdek ezgu g'oyalar bilan sug'orilgani bilan ahamiyatlidir. Shu o'rinda hozirda aynan sumalak, halim va ko'k somsa, ko'k chuchvara singari

✓ **Тўмарис издошлари**



Назокат Сафарова

НОЗИК ЕЛКАЛАРДА УЛКАН МАСЪУЛИЯТ

Жамиятимиз ҳаётининг ҳар бир соҳасида хотин-қизларнинг муносиб ўрни бор. ИИВ Қоровул қўшинларида ҳам эркаклар билан бир сафда, елкама-елка туриб хизмат қилаётган аёл ҳарбий хизматчилар талайгина.

Навоий вилоятида жойлашган 7532-ҳарбий қисмда фаолият олиб бораётган кичик сержантлар Назокат Сафарова ва Жансая Атаханова ана шундайлар сирасидандир. Улар ҳар тонгда оила юмушларини бажариб, хизмат сари отлашишга одатланган. Ўз касбига масъулият билан ёндашадиган қаҳрамонларимиз сабр ва қаноати, шижоати ва маҳорати билан она юрт ҳимоясига муносиб ҳисса қўшмоқда.

— Ҳарбий соҳада хизмат олиб бораётганимга қарийб 15 йил бўлди. Ўз касбим орқали Ватанимиз тинчлик-осойишталигини таъминлашга ҳисса қўшаётганимдан фахрланаман. Жамоадаги барча ҳамкасбларим оила аъзоларим каби қадрли бўлиб қолган, — дейди ҳарбий қисмнинг 2-батальони назоратчилар взводи 3-тоифали назоратчиси, кичик сержант Назокат Сафарова.

Асли бухоролик бўлган қаҳрамонимиз хизматни айна пайтда ИИВ ҳузуридаги ЖИЭД Бешинчи минтақавий ҳудудига қарашли 12-сонли жазони ижро этиш колониясида олиб бормоқда. Унинг асосий вазифаси — маҳкумларнинг яқин қариндошлари билан учрашув чоғида белгиланган тартиб-қоидаларга риоя этишларини назорат қилиш.

— Ҳозирда маҳкумларимизнинг яқин қариндошлари билан учрашувлари шароити аввалгидан кўра анча яхши. Ҳатто фарзандлари учун ҳам ўйингоҳлар, кутубхона ва сайргоҳларнинг барпо этилгани бу ерда оила муҳитини яратмоқда, — дейди Назокат Сафарова.



Жансая Атаханова

Яна бир қаҳрамонимиз — кичик сержант Жансая Атаханова, мана, 19 йилдирки, мазкур ҳарбий қисмда хизмат қилиб келяпти. Айна пайтда ҳарбий қисмнинг 2-батальонида шахсий таркиб ҳисоби бўйича масъул ижрочи лавозимида фаолият олиб боради.

— Раҳматли отам ҳарбий бўлган. Мен отамнинг ишини давом эттираётганимдан мамнунман, касбимни севаман ва қадрлайман, — дейди кичик сержант Жансая Атаханова.

Хизмат жамоасида «Жанна» деб ном олган қаҳрамонимиз қозоқ тилидан ташқари ўзбек ва рус тилларида бемалол сўзлаша олади. Табиатан оғир-босиқ, барчага меҳрибон, ўзига, иш юзасидан эса бошқаларга нисбатан ҳам талабчан.

Маҳлиё ХОЛОВА,
«Postda» мухбири.

Навоий вилояти.

✓ **Иккинчи истеъдод**

КЎЗМУНЧОҒИНГ БЎЛАЙ, ВАТАНИМ!

ИИВ Халқаро аэропортларда хавфсизликни таъминлаш қўшинларида йигитлар билан бир сафда хизмат қилаётган ҳарбий хотин-қизлар кўп. Аксарияти иккинчи истеъдод соҳибаларидир. Бири ажойиб пазанда бўлса, яна бири моҳир тикувчи. Бошқаси уйни гулларга буркайдиган гуллар шайдоси. Тўқувчи, ҳамшира, репетитор бўлганлари қанча?!



Қўшинларга қарашли Фарғона шаҳридаги 7253-ҳарбий қисмда хизмат қилиб келаётган кичик сержант Дилноза Ёқубова эса шеърият шайдоси. У 14 ёшидан шеър ёза бошлади. Унинг истеъдодини кўра билган отаси — истеъфодаги майор, ҳарбий шифокор Бахтиёр Ёқубов жигарбандини ҳар жиҳатдан қўллаб-қувватлади. Бора-бора шеърлари халқ ардоғидаги шоирлар назарига тушди. Бирин-кетин шеърий китоблари дунё юзини кўрди.

Ижоддан ажралмаган ҳолда Дилноза аввал Фарғонадаги тиббиёт коллежини битирди. Отасига ҳавас қилиб, ўзини ҳарбий соҳада синаб кўришга қарор қилди. ИИВ Халқаро аэропортларда хавфсизликни таъминлаш қўшинларига ҳужжат топшириб, 2014 йил Фарғона халқаро аэропортида хавфсизликни таъминлаш батальонида хизматни бошлади.

Кичик сержант Д. Ёқубова хизматда масъулиятли ходима бўлса, оилада ифбатли ва сариштали бека, икки нафар фарзанднинг меҳрибон онаси.

Дилноза олий маълумотли бўлишни ўз олдига мақсад қилган. Айна пайтда пойтахтимиздаги Тошкент Амалий фанлар университетининг педагогика ва психология йўналишида сиртдан таҳсил олмоқда.

— Эгнимдаги ҳарбий либоснинг қанчалик масъулиятли, нақадар залворли эканлигини доим ҳис қилиб тураман, — дейди ҳарбий қисм назорат-ўтиш жойларини кўриқлаш гуруҳи 3-тоифали назоратчиси, кичик сержант Дилноза Ёқубова. — Юрт шаънини кўтариш, тинч ва фаровон турмушимизни асраб-авайлаш, мустақиллигини мустаҳкамлашга оз бўлса-да, ҳиссамни қўшсам, дейман. Шундай пайтлари юртимизда амалга оширилаётган ўзгаришларни, Ватанимни, Миллий Армиямиз шон-шавкатини шеър орқали мадҳ қилишга интиламан.

Қуйида унинг қаламига мансуб шеърлардан бирини эътиборингизга ҳавола қиламиз.

Фозилжон МАМАШАРИПОВ,
«Postda» мухбири.

Дилга таъриф

Зулфияхонимга

*Садоқатдан сўз кетса мавар,
Зулфияни қиламиз мисол.
Кулиб боқар эди вунчалар,
Ҳар йил кўклам сўрар эди хол.*

*Ишқ ва совинч ёшларин тўқди,
Ўрик зуллаб ҳар нафасида.
Куйлаб ишқни, тонгни муттасил,
Манъу қолди баҳор фаслида.*

*Совинчини бермай ҳеч кимга,
Шеърлар битди кечалар бедор.
Ҳар сатрида Ҳамид Олимжон,
Ҳар сатрида мафтункор баҳор.*

*Интиларди қалб билан қалбга,
Асли бардош маъбудаси у.
Вафосидан ёзилган китоб
Бувун ҳар бир ошиққа кўзгу.*

*Баҳор келди. Кезди сарсари,
Куртак унди меҳр нуридан.
Гуллар дуо қилди тонг саҳар,
Зулфиядир диллар тўрида!*

✓ Урок духовности и просвещения

Навруз – время обновления

С приходом весны мир вокруг нас преобразуется, становится краше. Пробуждается природа, распускаются цветы, все вокруг одевается в красочный наряд, наступает пора обновления – Навруз. Навруз объединяет и облагораживает мир, соединяет людей, культуры, традиции, обычаи. Вот почему празднование Навруза – событие планетарное по своей общественной значимости и эстетической силе. Недаром в 2009 году ЮНЕСКО включила Навруз в Список всемирного наследия. Более 300 миллионов человек на Балканах, Ближнем Востоке, Кавказе, в Центральной Азии, других регионах отмечают его в день весеннего равноденствия, 21 марта, как начало нового года по восточному календарю.



Традиция празднования восточного Нового года уходит своими корнями в глубокую древность. Она была известна еще с доэллинистических времен. В государстве Ахеменидов (VI-IV века до н.э.) и Сасанидов (III-VII века н.э.) Навруз считался главным праздником. Древнегреческий историк Страбон писал: «В самые древние, давние времена и по сегодняшние жители Междуречья (Сырдарья и Амударья) собираются в этот день в Храме огня. Это самый почитаемый праздник, когда торговцы закрывают свои лавки, ремесленники прекращают работу, все веселятся, угощают друг друга теми напитками и едой, которых коснулся огонь». Позже, при Ахеменидах (VI-IV вв. до н.э.), Навруз получил государственный статус, превратившись из земледельческого ритуала во всенародный праздник.

каждая в ожидании своей очереди помешивать сумаляк. Утром еще теплым блюдо раздают соседям, родственникам, знакомым. Пробуя его, нужно обязательно загадать желание – говорят, что сбудется. Начиная с 1990 года, в нашей стране Навруз отмечают с особой торжественностью. Благодаря этому празднику восстановились национальные традиции и обычаи. Он приходит к нам, а это значит, что жизнь продолжается, и в наших домах воцаряются мир и благополучие.

В течение всего празднования Навруза каждый из нас невольно проникается духом весны, осознает себя неотъемлемой частью природы, чувствует прилив сил и энергии. Он символизирует величие и безграничную щедрость жизни. В эти дни проводятся духовно-просветительские мероприятия, наглядно демонстрирующие

наших предков. В подтверждение сказанному можно привести заповедь нашего народа: «Доброе слово, доброе дело, добрые помыслы». Наступает Навруз и сердца наполняются состраданием, отзывчивостью и любовью к ближнему, рождаются светлые мысли, добрые слова, звучит красивая музыка, все блещет яркими красками, совершаются правильные поступки и дела. И мир делается другим – солнечным, праздничным, одухотворенным и благодатным.

Навруз начинается с очищения: очищается жилище, одежда и утварь, устраняются имеющиеся недостатки.

По всей стране проходят хашары – люди убирают не только свои дома, но и улицы, приводят в порядок сады и огороды, белят деревья. Человек обязан очиститься и сам, и не только те-

роды, любви к жизни. Праздник созидания играет важную роль в нашей духовной жизни, укреплении гармонии человека и природы, утверждении в обществе атмосферы гуманизма, толерантности, уважения и внимания к старшему поколению, заботы о младших и в воспитании молодого поколения в духе национальных и общечеловеческих ценностей.

Согласно народной мудрости, хорошего человека можно узнать по глазам, а хороший год – по тому, как приходит Навруз. Поэтому во время его встречи люди радуются, веселятся. На украшенных площадях столицы, в областных и районных центрах, городах и селах, махаллях организуются всенародные гулянья с песнями, танцами и театральными представлениями, проводятся народные игры и забавы, конные и спортивные состязания: купкари и кураш. Все вокруг пропитывается весенней свежестью, радостью, новыми надеждами, что придает каждому жителю страны праздничный настрой.

Навруз очень дорог и близок к сердцу каждого узбекистанца. Ведь он отражает нашу самобытность. Этот светлый праздник знаменует наступление изобильной и благодатной весны, дарит людям надежду и веру. Помимо этого, Навруз служит укреплению сплоченности и дружбы, способствует возвышению общечеловеческих ценностей, которые особенно актуальны сегодня, когда нашей планете больше всего нужны мир и спокойствие, взаимопонимание между народами, согласие между представителями всех вероисповеданий.

Направленность Навруза на утверждение гармонии с природой, осознание неразрывной связи между созидательным трудом человека и природными циклами обновления, заботливое и уважительное отношение к естественным источникам жизни наставляет людей бережно относиться к богатствам Родины, осознавать непосредственную близость к ней.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.



21 марта уравниваются день и ночь, наступает новый солнечный цикл, астрономический год, закон обновления вступает в силу.

У всех народов, празднующих восточный Новый год, он связан с новыми надеждами и ожиданиями. В этот день люди прощают обиды, помогают нуждающимся. Хозяйки жарят особые пирожки с зеленью, пекут слоеную самсу, в котлах дымится ароматный плов.

Это время приготовления главного ритуального блюда из ростков пшеницы – сумаляка. За огромным котлом собираются махаллинские женщины: садятся в круг, поют песни, веселятся,

гармонию человека и природы, любовь к родной земле, призывающие жить с чувством благодарности в сердце.

Навруз побуждает людей совершенствовать мир и совершенствоваться самим. Его животворящая энергия вдохновляет, радует, напоминает о великой силе созидания, о том, что все мы дети планеты Земля, и только от нас зависит, каким будет наше будущее.

Навруз – это вечная нить, связывающая человека и природу. Он вселяет в наши сердца чувство братства, любви, щедрости. Проявление этих качеств, является продолжением добрых обычаев

лесно, но и духовно, ведь Навруз учит доброте, доброта – главный атрибут праздника. Добрая традиция – дарить в этот день подарки сиротам и неимущим, делать пожертвования. Считается, что любой подарок, сделанный на Навруз, сторицей возвращается к дарителю.

Великий узбекский поэт Алишер Навои в одном из своих произведений писал: «Пусть каждый наш день будет, как Навруз».

Узбекский народ ежегодно с большим воодушевлением встречает день весеннего равноденствия, который является символом чистого неба, обновления при-





Халолликни шпор қилган ходимлар

«ХИЗМАТ» ЭВАЗИГА ПОРА

Тошкент туманида истиқомат қилувчи Мансур Миршодов (исм-шарифлар ўзгартирилди) ўзига тегишли иссиқхонани иситиш мақсадида ноқонуний равишда газ қувурига уланиб, 61 миллион 204 минг сўмлик зарар етказди. Ҳолат юзасидан жиноий иш қўзғатилиб, қонунбузарликни бутунлай фош этиш туман ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлими терговчиси, лейтенант М.Ҳамидовга топширилди.

Тергов ҳаракатлари давомида гумон қилинувчи айбига тўла иқдор бўлиб, етказилган зарарни қоплади. Сўнгра терговчидан ишни судга чиқармасдан, маъмурий тартибда тугатиб беришини сўради ва бунинг эвазига 400 АҚШ доллари миқдорига пора таклиф қилди. Бу ҳаракат жиноят эканини қайта-қайта тушунтиришнинг фойдаси бўлмади. Фуқаро билганидан қолмади.

Лейтенант М.Ҳамидов вилоят

ИИББ бошлиғи номига ариза билан мурожаат қилгач, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳамкорлигида тезкор тадбир ўтказилди. Тадбир давомида 400 АҚШ долларини терговчига унинг хизмат хонасида пора тариқасида бераётган вақтда фуқаро М.Миршодов қўлга олинди. Қонунбузарнинг «мен бу пулларни совға тариқасида бергандим, бунинг жиноят эканини билмасдим» деган баҳоналари эса ўтмади.



Ички ишлар органларида қасам-ёдиға содиқ ходимлар бор экан, ҳар қандай жиноий қилмишга жазо

муқаррарлиги таъминланади. Буни асло унутмаслик лозим.

Михли САФАРОВ,
«Postda» мухбири.

Тошкент вилояти.



Жазони ижро этиш муассасаларида

ТОКИ ИНСОН ҲАЁТ ЭКАН...

Инсон учун озодликдан маҳрум бўлиш – оғир жазо. Шундай пайтда уни қилмишларидан тўғри хулоса чиқаришга ундаш жазони ижро этиш муассасалари ходимларининг асосий вазифасидир. Шу нуқтаи назардан жазо муддатини ўтаётган шахсларнинг яшаш шароитларини яхшилаш, ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш борасида сўнги йилларда қатор ислохотлар амалга оширилди.



ИИБ ҳузуридаги ЖИЭД Бешинчи минтақавий ҳудуд 4-сонли жазони ижро этиш колониясида ҳам бу борада самарали ишлар қилинмоқда. Бугунги қахрамонимиз – капитан Козим Мустафоев мазкур муассасада тарбиявий ишлар бўлими катта инспектори лавозимида фаолият кўрсатади.

– Токи инсон ҳаёт экан, хатоларни тузатиши мумкин. Бинобарин, маҳкумларнинг меҳнат қилиши, билим олиши учун имкониятлар яратилишидан асосий мақсад ҳам шу аслида, – дейди капитан. – Муассасамизда жазо ўтаётган

шахсларнинг телефон сўзлашуви, йўқлов олиши ва учрашувлари сони қарийб икки баробарга кўпайтирилди. Маҳкумларнинг таълим олиши ва касб-ҳунар эгаллаши бўйича ҳуқуқий кафолат мустаҳкамланди.

Соҳага оид қабул қилинаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар самараси ўларок, тизимда тўпланиб қолган муаммолар бирин-кетин ўз ечимини топмоқда. Маҳкумларнинг мурожаатлари билан ишлаш, уларни қийнаб келаётган масалаларга ечим топишда эса сайёр қабуллар алоҳида аҳамият касб этяпти.

Қахрамонимиз ўзига

бириктирилган туркумдаги маҳкумларнинг муаммоларини ҳал қилиш, хулқ-атворини яхши томонга ўзгартириш, уларни ҳалоллик, меҳнатсеварлик, қонунларга, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш йўлида жонбозлик кўрсатмоқда Ана шу сазой-ҳаракатларнинг натижаси ўларок, ўтган йили мазкур туркумдаги 43 нафар маҳкумга инсонпарварлик далолатномалари қўлланилиб, 18 нафари пробақия назоратига ўтказилди. Икки нафари намунали хулқи ва қилмишидан чин кўнгилдан пушаймонлиги

сабаб муддатидан аввал озодликка чиқарилди.

Сирдарёлик Б.М. капитан Козим Мустафоевнинг ташаббуси билан таълим стандартлари асосида мактаб ўқитувчиларидан сабоқ олиб, шаҳодатномали бўлди. 28 ёшли А.С. эса ID-карта (Ўзбекистон Республикаси шахс гувоҳномаси)ни мазкур муассасада олди. Шунингдек, тадбиркорлар ҳамда «Хунарманд» уюшмаси мутасаддилари билан ҳамкорликда маҳкумлар учун дурадгорлик, тикувчилик, ўймакорлик, қурилиш моллари ишлаб чиқариш бўйича ўқув курслари ташкил

этилиб, уларга касб-ҳунар ўргатилмоқда.

Соҳада 6 йилдан буён хизмат қилаётган капитан Козим Мустафоевнинг бўш вақтидаги сеvimли машғулоти китоб ўқиш. У вилоятдаги жазони ижро этиш муассасалари ходимлари ўртасида ўтказилган «Энг яхши китобхон ходим» кўрик-танловида фахрли биринчи ўринни, республикада эса 3-ўринни эгаллади. Маҳкумлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилишда ҳам унинг китобсеварлиги қўл келмоқда.

Маҳлиё ХОЛОВА,
«Postda» мухбири.

Навоий вилояти.





Ветераны – наша гордость

ЗАЛОГ УСПЕХА: НИКОГДА НЕ СЛАВАТЬСЯ



Ташкент покорило ее сердце красивыми улицами, добросердечием и гостеприимством жителей, несравненной национальной кухней. Приехав однажды, героиня очерка осталась здесь на всю жизнь. Узбекистан считает своей второй родиной, говорит, что ее душа осталась навсегда в этом солнечном крае.

Лариса Михайловна начала трудовую деятель-

Молодой следователь Лариса Мокеева приехала в Узбекистан из города Чебоксары. Когда она окончила высшую школу МВД в городе Горьком, Ларисе Михайловне предложили поработать в Узбекистане и откомандировали в Ташкент.

ность следователем в Мирабадском РОВД, где проработала 32 года. Ее первый наставник – начальник следственного отдела Мирабадского РОВД полковник Ахмаджон Жураев поддерживал в трудных ситуациях, давал ценные советы, помогал в работе. Начало 1990-х было очень непростым – рост преступности зашкаливал. Шкаф в кабинете Ларисы Мокеевой был забит делами. Нередко она оставалась до 3-4 утра и никогда не жаловалась на трудности профессии.

– Хорошую школу жизни я прошла, – вспоминает Лариса Михайловна. – Повезло работать с такими профессионалами,

как полковники Владимир Кашубин, Анвар Хайдаров, Абдумажид Муллажонов.

Лариса Мокеева старалась раскрывать преступления в самые кратчайшие сроки. Она считала необходимым уметь находить подход к людям и говорить по душам. Вскоре ей стали давать самые сложные дела – связанные с наркотиками, разбоями, грабежами. Выезжая на место происшествия, тщательно искала малейшие детали, дежурила по ночам. В то время не было ни камер, ни кодовых замков в подъездах, приходилось полагаться только на профессиональное чутье и опыт. Коллеги

считали ее одной из лучших.

В 2008 году героиня очерка вышла на пенсию. Подполковник в отставке в настоящее время работает юрисконсультантом. Часто следователи обращаются к ней за консультацией, и она им охотно помогает. Нередко за помощью к ней идут и представители Агентства по делам молодежи, и Комитета по делам женщин и семьи. Лариса Михайловна



не сидит без дела – работы у нее много.

Лариса Мокеева считает, что следователь должен быть сильным духом и никогда не сдаваться. В этом она видит залог успеха.

**Бибигуль
МУРТАЗАЕВА.**

ЙИГИТЛАР БИЛАН БИР САФДА

Катта лейтенант Дилноза Ашурова йигитлар билан бир сафда туриб, эл-юрт осойишталигини таъминлашда ва жиноятчиликка қарши курашишда камарбаста бўлиб келяпти.



Дилноза Бухоро давлат университетини тугатгач, аввал Вобкент педагогика касб-хунар коллежиде, сўнгра шу тумандаги 40-сонли умумий ўрта таълим мактабиде ўқувчиларга сабоқ берди. 2020 йилнинг май ойидан эса Бухоро тумани ИИБ ХПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори лавозимиде хизмат фаолиятини бошлади. У тизимдаги янгилик ва ўзгаришларни мунтазам ўрганиб, кундан-кунга билим ва тажрибасини бойитиб бормоқда.

Ҳикоямиз қаҳрамони тумандаги мавжуд 36 та маҳалла фуқаролар йиғи-

нида истиқомат қилаётган хотин-қизларнинг тинч-тоутув яшашини таъминлаш йўлида тиним билмайди. Айниқса, уларни қийнаб келаётган муаммоларни ўз вақтида бартараф этишда фаол. Доимо аёлларнинг дардига шерик ва муносиб ҳимоячисидир.

Қолаверса, хотин-қизлар ўртасида ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг барвақт олдини олиш, профилактик ҳисобда турган, қайта жиноят содир қилишга мойил аёллар билан ишлаш, аҳоли ўртасида эрта турмуш, эрта туғуруқ масалаларида тарғибот ҳамда тушунтириш ишларини олиб боришда ҳам фаоллик кўр-

сатмоқда.

Жорий йилнинг ўтган икки ойи давомида хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан асраш мақсадида ўнга яқин хотин-қизга ҳимоя ордери берди. 7 та оила яраштирилди. Бундан ташқари, профилактик ҳисобда турган 59 нафар хотин-қиз билан доимий равишда профилактик суҳбатлар олиб бормоқда. Яқинда пробация ҳисобида турувчи Сайёра исми аёлни яшаш манзилига эга бўлмагани сабабли туман ижтимоий ётоқхонасига жойлаштирди.

– Ҳаётимни ҳозирги фаолиятимсиз тасаввур этолмайман, – дейди катта лейтенант Дилноза Ашурова. – Ҳамкасбларим оғанидек бўлиб қолишган. Шукрки, оиламдан кўнглим тўқ. Шунинг учун, зиммамдаги вазифани, берилган ҳар бир топшириқни бажаришга улгуриб келяман. Бўш қолдим дегунча, яқинларимга мазали таомлар пишираман, бадий китоб ўқийман. Хуллас, уларнинг хурсанд бўлишига ҳаракат қиламан.

Мирзоқул АҲАДОВ,
«Postda» муҳбири.

Бухоро вилояти.

Мардон МАВЛОНОВ,

Ўзбекистон ва Тожикистон халқ артисти:

– *Аёлларни қадимдан гулга, баҳорга, ойга, қўйингки, борлиқнинг энг нафис, гўзал ва мўъжизавий сир-синаотларига йхшиатишади. Аён ҳақиқатки, шоирларнинг энг гўзал шеърлари, ҳофизларнинг дурдона кўшиқлари ва расомларнинг энг нодир асарлари уларга бағишланган...*



Аёлларсиз бу ҳаёт тасаввур қила олмайдиганимиз даражада гариб бўлар эди. Шу боис фасллар келинчаги йлкамизга кириб келиши биланоқ вафо ва садоқат тимсоли бўлган хотин-қизлар байрами дунёнинг кўнлаб давлатларида нишонланади.

Бу байрам, бошқа байрамлардан фарқли ўлароқ, аёлларга ўзгача ҳурмат-эҳтиром кўрсатиш, гамхўрлик қилиш, совға-саломлар улашиш, уларнинг қувончига сабабчи бўлишимизга имкон бергани учун ҳам барчамизга бирдек қадри. Она юртимиздаги барча таълим масканларида она каби азиз бўлган устозларини табриклаш учун шошилаётган йқувчилар, кўча-кўйда, жамоат жойларида меҳрибон оналари, умр йўлдошлари, она-сингиллари ёки ҳамкасбларини қутлашга ошиқайтган инсонларни кўриб тинчликнинг қадрига янада кўпроқ етасиз. Озод ва обод Ватанимизда тинчлик-осойишталикнинг ҳукм сураётгани байрамларни хурсандчилик билан қарши олишимизга замин яратаётганидан фахр туйғусини ҳис этасиз.

Фурсатдан фойдаланиб, юрт тинчлигини асраш йўлида эркаклар билан елкама-елка туриб хизмат қилаётган она-сингилларимизни байрам муносабати билан табриклайман. Гўзал ва беғубор қалбингизга асло гард юқмасин, азиз аёллар!



✓ *Жизнь и судьба*

МАМА – МОЙ ДОБРЫЙ НАСТАВНИК



В жизни каждого из нас есть человек, которому в трудный час можно излить душу, поделиться печалью и радостью, попросить дельный совет и избежать досадных ошибок. Добрый наставник, учитель, словно заботливый ангел-хранитель, уберезет от беды, успокоит и согреет теплом своей души...

Для главного редактора Объединенной редакции МВД Республики Узбекистан полковника Бернары Садиковой таким ангелом-хранителем является мама. На долю Халимы ая Махмудовой выпала нелегкая судьба. Она росла без отца, погибшего на фронте, с самых малых лет трудилась, помогая во всем овдовевшей матери, а когда подросла и стала работать медсестрой-акушеркой в сельском медпункте, а потом в одном из медицинских учреждений столицы, то и забот прибавилось вдвойне.

– Мама в молодости была очень красивой, – рассказывает Бернара Тараваевна. – Стройная, с черными как смоль длинными косами. Женихи без устали старались завоевать ее сердце. Но мама была строгая, с твердым характером, ни на кого не

обращала внимания, доверив свою судьбу Всевышнему. Однажды она даже двух преступников задержала. В то время нам, детям, по пять лет было. Ее потом пригласили в местное РУВД, поблагодарили за помощь в поимке воров, промышлявших кражами в магазинах, а потом и вовсе пригласили на работу в органы внутренних дел, где она трудилась много лет до самого выхода на заслуженный отдых.

У смелой, решительной, и в то же время доброй и отзывчивой мамы Бернары Тараваевны многому научилась Халима ая, посвятив себя семье и любимой работе. Принципиальность, настойчивость, полная самоотдача выделяли ее в повседневной жизни. Это важно так же, как всем сердцем и душой любить свою профессию.



Халима ая, пусть небеса пошлют ей многие годы жизни, и сегодня такая же активная, как и раньше, старается всегда быть в центре событий, особенно махаллинских, ведь после того как вышла на заслуженный отдых, первой из женщин стала председателем одной из махаллей Мирзо-Улугбекского района. Она проработала в этой беспокойной, требующей терпения и усердия должности более шестнадцати лет. Но и сегодня, несмотря на солидный возраст, принимает активное участие в махаллинских делах, мероприятиях, вместе с активистами решает

наболевшие проблемы, оставаясь наставником и учителем молодежи.

Сегодня, 8 марта, у Халимы ая день рождения, а потому от души поздравляем ее с двойным праздником!

...Жизнь можно сравнить с полетом птиц, с круговертью звездного неба. Но, несмотря на то, что волосы серебрят седина, мы все равно остаемся такими, как и раньше. Пусть все те, кто нам дорог, проживут еще много лет, радуя нас своим присутствием, согревая теплом души.

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент «На посту».
(Фото из семейного архива.)

✓ *Жазони ижро этиш муассасаларида*

ИШОНЧНИ ОҚЛАЁТГАН УЛДАУЛЕТ

ИИВ Қорақалпоқ академик лицейи ўқувчиси Улдаулет Балтабаева Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси томонидан таъсис этилган «Умид учқуни» кўкрак нишони совриндори.

Лицейнинг 2-босқичида таълим олаётган У. Балтабаева жамоат ишларида фаоллиги ва спортда эришган ютуқлари билан тенгдошларига ўрناк бўлмоқда.

У 2005 йилда ҳарбий хизматчи Фурхат Балтабаев ва тиббиёт ходимаси Света Хожамуратова оиласида дунёга келган. Болалигидан қизининг хатти-ҳаракатларида чаққонликни сезган ота-онаси уни бадий гимнастика тўғрисида олиб борди. Лекин Улдаулет спорт билан шуғулланаётган ёшларни кузатар экан, ойисига гимнастика билан эмас, балки каратэ билан шуғулланиш хоҳишини айтади.

Ўша пайтдан бошлаб Улдаулет каратэ билан мунтазам шуғулланишни бошлади. Йиллар ўтиб, танлови хато бўлмаганлигини у ютуқлари билан исботлади.

– Спорт инсон танасини чинқитириш билан бирга, руҳий

жиҳатдан чидамли ва сабрли бўлишга, маълум бир мақсад йўлида интилишга ундайди. Спорт ҳаётимнинг ажралмас қисмига айланганидан машғулотларни қолдирмаслик учун спорт зали билан уйимиз орасидаги 7–8 километрлик масофани пиёда босиб ўтган кунларим бўлган. Кўп ҳолларда мураббийим Шерзод Юсуповнинг «Агар одамда интилиш бўлса, бир кун мевасини кўради, албатта, ютук бўлиши аниқ» деган насиҳатлари менга руҳий далда бўларди, – дейди Улдаулет Балтабаева. – Лицейдаги ўқишимга келсак, дадамнинг ҳарбий бўлгани шу соҳага бўлган қизиқишимни оширган. Келажакда ИИВ Академиясида ўқишни, у каби Ватан ҳимоячиси бўлишни хоҳлайман.

– Улдаулет шу кунгача спортнинг каратэ-до тури бўйича 7 марта Қорақалпоғистон, 1 марта Ўзбекис-



тон чемпиони бўлишга улгурди, – дейди лицей директори, подполковник Учқун Қодиров. – Спорт усталигига номзод қизимиз нафақат спортда, балки ўқиш ва жамоат ишларида ҳам фаол.

Хулоса қилиб айтганда, доим олға интиладиган, ҳаётда ўз мақсадига

эга Улдаулет келгусида бундан ҳам юқори марраларни забт этишига, Ватанимиз учун ҳалол ва фидойилик билан хизмат қиладиган инсон бўлиб етишишига ишончимиз комил.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
«Postda» мухбири.
Қорақалпоғистон Республикаси.

Marafon

XAVFSIZ HAYOT UCHUN

Ichki ishlar vazirining «Xavfsiz hayot uchun» marafonini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoyishiga asosan, 5-mart kuni respublikamizning barcha hududlarida «Xavfsiz hayot uchun» shiori ostida velo va piyoda yurish marafonlari o'tkazildi.

Marafonlarda minglab yoshlar, nuroniylar, ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolari, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. «O'zingiz va o'zgalarni asrang», «Xavfsiz yo'llar tarafdorimiz!», «Xavfsizlik kamari – hayot garovi» kabi shiorli chorlovlar marafon ta'sirchanligining oshishida muhim omil bo'ldi.

Marraga birinchi bo'lib kelgan g'oliblar, faol ishtirokchilar munosib taqdirlandi.


ANDIJON

SAMARQAND

QASHQADARYO

FARG'ONA

BUXORO

NAVOIY


✓ Сиз кутган учрашув

РИХСИ ИБРОҲИМОВА: ҲАР БИР АЁЛ ОИЛАСИДА ҚАДР ТОПСИН

Ўзбек Миллий академик драма театри. Янги спектаклга тайёргарлик авжида. Рихсихон ая қаҳрамонининг ҳолати тарқаб улгурмаган актёр ва актрисаларга маслаҳат бераркан, бизни ҳам илиқ қаршилади. Муаззам даргоҳ йўлакларидан «Ўзбекистон халқ артисти Рихси Иброҳимова» деган ёзув осилган хона томон одимлади. Шинамгина хона деворига суратлар дид билан осилган. Бу тасвирлар устоз санъаткорнинг илк ижросидан то ўзбекнинг аясига айлангунига қадар босиб ўтган ҳавасли ва ибратли йўлидан сўзлаб турарди гўё...

Аёллар, опа-сингиллар байрами олдидан кўришишдан муддаоимизни англаган Рихсихон ая бу даргоҳ нафақат унинг санъатига, балки бахту саодатига эшик очгани ҳақидаги ёрқин хотиралардан сўз очди.

– 1956 йиллар эди. Театрда катта қурилиш кетяпти. Бироқ саҳнада ҳар куни спектакль ижро этамиз. Шундай кунларнинг бирида бир йигитга тез-тез тўқнаш келадиган бўлиб қолдим. Маълум бўлишча, бу йигит янги бинонинг муҳандиси экан, орадан биров вақт ўтгач, ўша йигит олдимга келиб, «Менинг онамининг исми Рихси, сизнинг исмингиз ҳам Рихси, мен сизга уйланаман ва онамдек ардоқлаб, ҳурмат қиламан», деса бўладими?!

Ҳайратдан қотиб қолдим. Кейин билдимки, бу изҳорнинг узундан-узун сабаби бор экан. У онасидан жуда эрта етим қолган ва меҳрини соғиниб яшаган. Шу-шу, орамизда илиқ муносабатлар пайдо бўлди. Оила қурдик, жуда бахтли яшадик. Бу бахт шунчалар катта эдики, у санъатим, оилавий ҳаётим билан қоришиқ яралди. Шу боис доим ҳар бир аёлнинг, аввало, оиласида қадри баланд ва бахти бутун бўлсин, дейман. Чунки оиласида кўнгли ёруғ аёлнинг чоғланган ҳар қандай иши гўзал бўлади.

– **Элнинг назарида ҳикмат бор, дейишади. Сиз бу ҳавасли йўлни қандай босиб ўтдингиз?**

– Ёшлигимдан санъатга қизиққанман. Устозимиз Инобат Расулова қалбимда адабиётга, санъатга меҳр уйғотган инсонлардан бири бўлган. Мактабни тамомлаб, журналист бўламан, деган мақсадда журналистика факультетига ҳужжатларимни топшириб, учта фандан «беш» баҳо олганман. Ўқишга кирганим аниқ. Отам санъатга муносабати жуда яхши инсон эди, сибизга чаларди. Овози чиройли эди, масжидда азон айтарди. Бир куни «Артистларни тайёрлайдиган институт бор экан. Шу ерда дўстим завхоз бўлиб ишларкан, агар хоҳласанг бориб кўргин», деб қолди.

Тўғриси, ўшангача артистлар ўқитилишини билмасдим. Шунчаки роль ижро этишса керак, деб ўйлардим.

Отамнинг шу гапидан кейин институтни қидириб борганман.

Тақдирни қарангки, мени қабул қилишди. Онамга, акамга айтмаганман. Иккинчи босқич талабасиман, театрда кичик-кичик саҳналарда қатнашаман, аммо акамдан актрисаликка ўқиётганимни яшираман. Барибир билиб қолдилар. Мени роса койдилар. Шунда отам «Кўй, болам, ўқисин, мен руҳсат бердим» деганлар. Отамнинг санъатга бўлган ихлоси менинг бу соҳадаги илк қадамларимдан ҳозиргача мадакор бўлди, десам, тўғри бўлади.

Мени театрга олиб келган, саҳна сирларини ўргатган устозим эса Сора Эшонтўраева бўлади. Ўша вақтда улар театрнинг раҳбари эди. Аброр Ҳидояттов оламдан ўтганидан кейин «Энди менинг партнёрим йўқ, ролларимни сизга топшираман», дея Жамила, Гули, Офелия сингари бир қанча ролларини менга ўргатган. Шундай меҳрибон ва бағрикенг устоз қўлида соҳа сирларини ўрганганим менинг бахтимдир.

Устоз санъаткор соҳадаги самарали хизматлари учун «Меҳнат шухрати», «Эл-юрт ҳурмати», «Фидокорона хизматлари учун» орденлари билан мукофотланган.

– **Устоз санъаткор сифатида инсоният ҳаётида театрнинг аҳамиятини қандай баҳолаган бўлардингиз.**

– Инсонга телевидение, радио, китоб тез таъсир этади. Театр – жонли мулоқот. Бу одамга улардан ҳам кучли таъсирини ўтказади. Саҳна ва томошабин мулоқотида тўғулар, ҳис-ҳаяжон бир-бирини тўлдириб туради. Шу боис, томошабин саҳнада актёр кулса, кулади, фарёд чекса, кўзларига ёш тўлади. Яна бир жиҳат, театр яхши маънодаги тарбиячи, инсон маънавий оламини бойитиб, эзгуликлар сари талпинтирувчидир.

– **Рихсихон ая, театр саҳнасида драматик образларни, кино ва турли дастурларда ҳам ўзига хос характерли қаҳрамонларни меъёрига етказиб ижро этгансиз. Бу ўз ўрнида маҳоратни талаб қилади. Ёки бошқа сири борми?**



Ўзбекистон халқ артисти Рихси Иброҳимова 1937 йил Тошкент шаҳрида туғилган.

Актриса илк фаолиятини ҳозирги Ўзбек миллий академик драма театрида бошлаган. Устоз санъаткор театр саҳнасида Гули, Феруза, Жамила, Офелия, Эмилия, Корделия каби мураккаб образлари ҳамда «Шум бола», «Келинлар кўзғолони», «Ёнаётган фаришта» каби фильмлардаги роллари билан халқимиз меҳрини қозонган.

– Мен ўзбек аёллари қиёфасини доим бор меҳрим билан ижро этганман. Шу билан бир қаторда, ўзимга мутлақо тесқари, ёт аёллар қиёфасини ҳам яратдим. Бу билан нафақат бошқа инсон қиёфасини, балки унинг қалбини ҳам томошабинга кўрсатишга ҳаракат қилдим. Бунда катта маҳорат ва кенг дунёқараш зарур. Шу ўринда яна Сора опанинг жонқуярлигини таъкидлаб, уларни бу роллардаги рангларни аввал юрагимга, кейин ижроларимга сингдирган «рассом», деган бўлардим.

– **«Шум бола» фильмидаги матонатли Она образидан томошабин қалби титраб кетади. Ушбу ижро билан боғлиқ хотираларингизни ўртоқлашсангиз.**

– Киноасарда жуда кичик эпизодда кўринаман. Аммо халқимиз бу ижроимни бошқача меҳр билан тилга олади ва қадрлайди. Аслида мен фильмда катта янгилик қилмаганман. Ичимдаги оддий хокисор онанинг кечинмаларини гавдалантирганман.

Суратга олишда энг қийини Қоровойнинг бошида тухумни синдириш саҳнаси бўлган. Она «Бу шумгина бошимга битган бало бўлди-ку», дея ўқлов билан фарзандининг бошига ургани ҳамонок, тухум синиб оқиб тушиши, «Вой дод, боламнинг боши ёрилиб қолди, болам-м», деб онанинг кўзи қинидан чиқиб кетиши керак. Аммо тухум нуқул ерга тушиб синади-да. Хуллас,

бир эмас, ўнтадан кўп тухумнинг бошига етганмиз.

Мен фильм бошида йўқ бўлиб кетаман. Лекин фильмнинг охирида Қоровой шаҳарга қайганида Тешавойга дуч келиши, «Онанинг шўрлик дийдорингга тўймай ўлиб кетди, аттанг, барвақт етим қолдиларинг» дегани, ака-сингилларнинг изтиробли йиғисини кўрганда, ҳалигача кўзимдан ёш қуйилиб келади.

– **Ўткир Ҳошимовнинг «Дунёнинг ишлари» асари асосида суратга олинган видеофильмдаги Она сиймосини мухлислар ҳозиргача соғинади, бошқача меҳр билан такрор-такрор томоша қилади...**

– Мен китоб ўқишни жуда яхши кўраман ва кўп китоб ўқийман. Айнан шу асарни ўқиганимда «Дунёнинг ишлари» асосида яратилган видеофильмда суратга тушаман, деб ўйламаганман. Аммо Мираббос мени шу ролга таклиф қилганида, бажонидил рози бўлганман ва бир-иккита ролларга ижрочиларни ҳам ўзим топиб берганман. Чунки суратга олиш жараёнлари тез якунланиши керак эди.

Видеофильмнинг биринчи тасвирида «Бу қисса катта-кичик новеллалардан иборат. Бироқ уларнинг барчасида энг азиз одам – онам сиймоси бор. Бундаги одамларнинг ҳаммасини ўз кўзим билан кўрганман. Фақат баъзиларининг исми ўзгарди, холос. Дунёдаги барча оналар фарзандига муносабат бобида бир-бирига жуда ўхшайди. Бас, шундай экан, бу асар сизларга бағишланади, Онажонлар! Бу одамларнинг қисмати қайсидир жиҳатдан онамга боғланган», деган сўзлар кетади. Бу самимий изҳорда чуқур маънони англаганим сайин, онам билан боғлиқ хотираларим уйғонади. Мен асарда шу хотиралардан куч олиб, ролда онамни, ҳа, ўз онамни ижро этганман.

Юмушларидан ҳориган онанинг боласини бағрига босганча алла айтиш саҳнасини эсланг. Бу аллада сўзлар йўқ, фақат оҳанг, бироқ шу оҳангда онанинг дарди, шукронаси мужассам. Ёки бўлмаса, боласининг юзига тарсаки тушириб, кейин бағрига босиб, «Нималар қилдинг, нима деган одам бўлдинг?!» ёки бўлмаса, йўқолган деб топилган зиракни келиннинг қулоғига тақиш саҳналарида ўзимнинг ҳам хўрлигим келиб, бор вужудим билан берилиб ўйнаганман. Асар экран юзини кўрганидан кейин даста-даста хатлар олганман. Бунгача юзга яқин роллар ўйнаганман. Не бахтки, халқимиз мана шу ролим билан мени олқишлади.

– **Санъатсевар халқимиз қалбини забт этган ўзбек онасисиз. Байрам муносабати билан юртимиз хотин-қизларига тилақларингиз.**

– Аёллар бахтли бўлишни хоҳлайди ва ҳеч қачон бахтга тўймайди. Уларнинг барча эзгу ниятлари бахтиёрликка етаклайди. Илоҳим, шу яхшиликлар уфққа туташ бўлсин, уларнинг бахти бекам бўлсин.

**«Postda» муҳбири
Гулноза ТУРГУНБОЕВА
суҳбатлашди.**



Хоразм

ХУШЁРЛИКНИНГ САМАРАЛИ НАТИЖАЛАРИ

Хоразм вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони ходимлари ўзларига бириктирилган ҳудудларда жамоат тартибини сақлаш, аҳоли хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш бўйича самарали ишларни амалга оширмоқда.



– Хизмат фаолиятимиз уч босқичда ташкил этилган, – дейди батальон командири, подполковник Ҳамид Қурбонов. – Бунда асосий эътибор жамоат хавфсизлигини таъминлаш, жиноятларни «иссиқ изида» фош этишга қаратилган. Жорий

йилнинг ўтган даври таҳлилига назар ташлайдиган бўлсак, турли ҳуқуқбузарликлар содир қилган 1884 нафар шахсга нисбатан маъмурий баённомалар расмийлаштирилиб, 156 нафар шахс нарколегия диспансерига, 13 нафари

реабилитация марказига жойлаштирилди. Ходимларимизнинг хушёрлиги туфайли содир этилган 3 та жиноят «иссиқ изида» фош этилиб, қидирувда бўлган 3 нафар шахс ушланди. Шунингдек, ходимларимиз содир этилиши мумкин бўлган

5 та жиноятнинг барвақт олдини олишга эришди.

ППХ батальони ходимлари Урганч шаҳри ҳудудида ўтказилаётган «Хавфсиз ҳудуд», «Назорат» ҳамда «Жамоат хавфсизлиги ойлиги» махсус тезкор-профилактик тадбирларида ҳам фаол иштирок этишмоқда.

...Тунги соат таҳминан 22:20 лар атрофида шаҳардаги Гурлан кўчасида жойлашган хонадонлардан бирида фуқаролар жанжаллашаётгани ҳақида хабар олинди. Батальон ходимлари профилактика инспектори билан бирга ушбу хонадонга етиб боришганида 3 нафар шахс ўзаро жанжаллашаётганига гувоҳ бўлишди. Улар ҳудуд профилактика инспекторининг хизмат хонасига олиб келиниб, холислар иштирокида кўздан кечирилганида О.Қ.нинг чўнтагида инсон ҳаёти учун хавfli бўлган ўткир тигли жисм борлиги аниқланди ва тегишли тартибда ҳужжатлаштирилди.

ППХ батальони 2-от-

ряди командири, катта лейтенант Элдор Озодов, 1-отряд ҳайдовчи-ходими, кичик сержант Рашид Абдуллаев ва 2-отряд сафдор-ходими, сафдор Умид Матчановлар хизматга жалб қилинган вилоят ИИБ ЖҚБ ходимлари билан ҳамкорликда урганчилик Ж.Р.ни кузатувга олишди. Гиёҳвандлик воситалари олди-сотдиси билан шуғулланишда гумон қилинган бу кимсанинг уйи белгиланган тартибда кўздан кечирилганида, ётоқхонадаги шкафдан икки бўлак гашиш ва марихуана гиёҳвандлик моддалари келгусида сотиш мақсадини кўзлаб сақлаб қўйилгани аниқланди.

Ички ишлар органлари соҳавий хизматлари ходимлари билан ҳамкорликда ўтказилаётган тезкор профилактик тадбирлар юртимиз осойишталигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Худойберган ЖАББОРОВ,
«Postda» мухбири.

Суратда: вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони ходими, сафдор Фаррух Қурёзов хизмат пайтида.



Бу – менинг онам

МЕҲРИБОНИМ, МУШФИҚИМ, МУНИСИМ

Халқимиз азалдан оналарни, аёл зотини Яратганнинг улуғ неъматини, тенгсиз мўъжизасини, деб билади, уни ҳамиша ардоқлаб-асраб келади. Зотан, ўзининг хузур-ҳаловатидан воз кечиб, тунларни бедор ўтказган, фарзанди учун бутун борини, борлигини беришга тайёр оналарга ҳеч кимни қиёслаб бўлмайди.

Онам – Зебо Намозова мени дунёга келтириб, отам билан бирга тарбиялаб, вояга етказди. Унинг оқилона тарбияси туфайли 2014–2019 йилларда ИИБ Тошкент олий ҳарбий техника билим юртида таҳсил олдим. Ҳозирги кунда Қашқадарё вилояти ИИБ Эксперт-криминалистика маркази бош эксперти вазифасида хизмат қиляпман.

Онам қарийб 15 йилдан буён Қашқадарё вилояти ИИБ Тиббиёт бўлими ҳарбий-тиббий комиссияси психологи лавозимида фаолият кўрсатиб, ички ишлар орган-

ларига хизматга қираётган номзодларни саралашга катта ҳисса қўшиб келмоқда.

Мамлакатимизда хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини

таъминлаш, уларнинг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий фаоллигини ошириш бугун Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг муҳим йўналишларидан бирига айланди.

Нафосат ва латофат олами вакилларини, бутун мамлакатимиз аёлларини, ички ишлар органларида хизмат қилаётган ходимларни, шулар қаторида онажоним Зебо Намозовани 8 март – Халқаро хотин-қизлар байрами билан самимий табриклайман. Барча хотин-қизлар оиласи ва яқинлари бахтига, қолаверса, аёл кадрини эъзозлаб яшайдиган эл-юртимиз бахтига соғ-омон бўлишини, доимо гўзал баҳорий кайфиятда юришига тилақдошман.

Ҳумоюн ХУШВАҚТОВ,
катта лейтенант.

Қашқадарё вилояти.



ҚАРОР ВА ИЖРО

«ТўМАРИС ИЗДОШЛАРИ» ГУРУҲЛАРИ хотин-қизларни ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилишда иштирок этади

Хоразм вилояти мусиқали драма театрида Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 19 январдаги «Ички ишлар органларининг хотин-қизлар масалалари бўйича бўлинмалари ҳузуридаги «Тўмарис издошлари» жамоавий гуруҳлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори ижроси юзасидан тадбир бўлиб ўтди.

Тадбирни вилоят ҳокимининг ўринбосари Н.Қутлимуратова очиб, қарор мазмун-моҳияти ҳақида ба-тафсил сўз юритиб, «Тўмарис издошлари» гуруҳларининг фаолияти, асосий вазифаларига тўхталди.

– Жорий йил 1 июндан «Тўмарис издошлари» жамоавий гуруҳлари ўз фаолиятини бошлайди, – дейди вилоят ИИБ ЖХД ХПБ бошлиғининг ўринбосари, капитан Сайёра



ларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳамда қонуний манфаатларни ҳимоя қилишга қаратилган чора-тадбирларни ҳамкорликда амалга оширишдан иборат. Шунингдек, хотин-қизлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш, хотин-қизларнинг муаммоларини ўрганиш ҳамда уларни ижобий ҳал этишнинг мақбул йўллари аниқлашда бевосита иштирок этишлари белгиланган.

Тадбирда хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш

борасидаги ишларни амалга оширишда фаол иштирок этаётган бир гуруҳ ёшлар ташкилотчилар томонидан муносиб тақдирланди.

Тадбир якунида вилоят мусиқали драма театрининг ижодий жамоаси томонидан саҳналаштирилган «Тўмарис» спектакли намойиш этилди.

Худойберган ЖАББОРОВ,
«Postda» мухбири.

Хоразм вилояти.

Гулистон шаҳридаги Ёшлар маркази мажлислар залида ҳам «Тўмарис издошлари» жамоавий гуруҳлари фаолиятини ташкил этишга бағишланган семинар ўтказилди.

Тадбирда ИИБ ЖХД Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизмати бошлиғи, полковник Б.Бердалиев тизимдаги янгиликлар ҳамда «Тўмарис издошлари» жамоавий гуруҳлари фаолиятини йўлга қўйишдан кўзда

тутилган мақсад ва вазифалар, уларнинг асосий фаолият йўналишлари ҳақида атрофлича маълумот берди.

Аёл ходимлар томонидан тайёрланган «Тўмарис издошлари» номли саҳна кўриниши намойиш этилди.

Тадбир сўнгида ижтимоий кўмакка муҳтож аёлларга ўзининг беминнат ёрдамини кўрсатиб келаётган ҳамкор ташкилот вакилларига та-



Худойберганова. – Ушбу гуруҳларнинг асосий вазифаси хотин-қиз-



шақкурнома ва эсдалик совғалари топширилди.

Гулноза МИРЗАБЕКОВА,
подполковник,

Сирдарё вилояти.

✓ **Ватан манзумаси**

ЖАСОРАТ ВА САДОҚАТ ТАРАННУМИ

Майсаларинг шивирлашди, тизлар чўқдим, қулоқ бердим, Билмай босиб чумолини гуноҳимга сўроқ бердим. Ватан не деб сўрганларга бир кафтгина тупроқ бердим, Менга Ватан сийратини, Момо ерим, ўзинг бердинг.

Ўзбекистон халқ шоири Маҳмуд Тоир қаламига мансуб ушбу сатрларда она Ватан суврати нақадар тиниқ чизилганига гувоҳ бўлиш мумкин.

Шиддат билан ривожланиб бораётган бугунги кунда келажакимиз эгаларини турли ёт унсурлардан ҳимоя қилиш ҳамда уларнинг қалбида киндик қони томган она юртга бўлган меҳр-муҳаббат ва садоқат туйғуларини

янада кучайтириш муҳим аҳамиятга эга. Бу борада ватанпарварлик руҳида ўтказиб келинаётган турли тадбир ва маросимлар ҳам ўзининг ижобий мевасини бераётир, десак, асло муболаға бўлмайди.

Нафақат ёшларимиз, балки бутун халқимиз кўнглидан муносиб жой олишга улгурган «Ватан манзумаси» номли адабий-маърифий кечанинг мунтазам ташкил этилаёт-

гани фикримиз тасдиғидир.

Яқинда пойтахтимизнинг муҳташам «Туркистон» санъат саройида

ши зарур» деган ибратли фикрининг амалий намойишига гувоҳ бўлишди.

Дарҳақиқат, дунёда турли хавф-хатар ва таҳ-

садида ташкил этилган мазкур кечада ижодкорлар ва ҳарбий хизматчилар ўртасида яқдилликни янада мустаҳкамлаш, ёшларимизни ҳарбий-ва-

танпарварлик ва маънавий-ахлоқий қадриятларимизга ҳурмат руҳида тарбиялаш, уларда мардлик ва жасорат туйғуларини янада кучайтиришдек эзгу амал тажассум топди. Унда янграган она Ватанни мадҳ этувчи дилрабо куй-қўшиқ ва тароналарга ҳамоҳанг тарзда марҳум ва замондош шоирларнинг шеърлари

жаранг сочди. Юртимиздаги тинч-осойишта ҳаёт, ижтимоий барқарорлик ва инсонлар ўртасидаги меҳр-оқибат ёрқин ва бетакрор мусиқий дастур орқали юксак пардаларда тараннум этилди.

Михли САФАРОВ,
«Postda» мухбири.
Икром ҲАСАНОВ
олган суратлар.



ўтказилган адабий-маърифий кечага ташриф буюрганлар давлатимиз раҳбарининг жорий йил Ватан ҳимоячилари куни байрами муносабати билан йўллаган табригида эътироф этилган «Ҳарбий-жанговар салоҳият ва юксак маънавий салоҳият Ўзбекистон Қуролли Кучларининг икки буюк таянчига айлани-

дидлар, қуролли можаролар кучайган бир пайтда юртимиз ҳимоячилари ва эртанги кунимиз эгаларида юксак ватанпарварлик туйғусини ҳамда жанговарлик руҳини оширишга қаратилган бу каби тадбирларнинг аҳамияти муҳим саналади.

Халқ ва армия бирдамлигини таъминлаш мақ-



ТУРМУШ ЧОРРАҲАЛАРИДА ТЎРТТА НОН

Улар оилада икки ўғил эди. Ҳикмат ака ҳар иккисига ҳам барабар меҳр берди. Сарвар бахтли кечган болалигини доим ширин энтикиш, аллақандай соғинч билан хотирлайди.

Дам олиш кунлари отаси уни гоҳ ҳайвонот боғига, гоҳ сайилгоҳга, гоҳ қўғирчоқ театрига олиб борарди. Баъзан кўчада кетишаётганда одам кўп бўлса, бўйнига миндириб оларди. Шунда Сарвар ҳаммадан баландлигидан завқланиб қийқарарди. Уйда отасини от қилиб минганида ҳам шодлигининг чеки бўлмасди.

Мактабда ўқиб юрган кезлари, отаси ишдан чарчаб келган бўлса ҳам, эринмай унга дарс тайёрлашга ёрдамлашарди. Тушунмаганларини ҳижжалаб тушунтирарди. Кейинроқ иккала ўғли учун инглиз тили бўйича репетитор ёллади. Сарвар Иқтисодиёт университети, укаси Жаҳон тиллари университетига ўқишга кирди. Аксига олиб, Сарвар бюджетга илина олмасди. Отаси унга:

– Ҳеч ҳам хижолат чекма, болам. Пул топилади. Сен хаёлингни бўлмайд яхши ўқи, – деди.

Сарвар университетни битирганида, отаси ундан кўра кўпроқ қувонди. Энди ошхона бизнеси билан шуғулланмоқчи эканли-

гини эшитиб, ниятини қўллаб-қувватлади.

– Тўғри ўйлабсан, ўғлим. Кийимни ямаб бўлади, лекин қоринни ямаб бўлмайди. Одамлар ҳар куни овқат ейди. Бу савобли бизнес, – деди.

У Сарварнинг кафесига тез-тез келиб турарди. Ҳар гал ўғлига ҳам, ошпазларга ҳам масаллиқдан урмасликни қайта-қайта тайинларди. Акс ҳолда, мижозлар камайиб кетишидан огоҳлантирарди. Хўрандаларни кўпайтириш учун яна нималар қилиш кераклиги борасида маслаҳатлар берарди. Кейин ишига ривож тилаб, узундан-узук дуо қиларди.

Хуллас, Сарвар отасининг дуосини олиб, йўл-йўриқларига амал қилиб кам бўлмади. Яна битта ошхона очди. Уйланди. Укасининг уйланиш гали келганда, кафесига яқин жойдан уй олиб, кўчиб чиқди. Ушанда ғалати аҳволга тушиб, отасига:

– Қилган яхшиликларингиз учун олдингиздаги қарзимни ҳеч қачон узолмасам керак, – деганида Ҳикмат ака:



– Ҳар замон тўртта нон кўтариб келиб турсанг бўлди, ўғлим, – деганди.

Мана, ўшандан кейин ҳам қанча сувлар оқиб ўтди. Сарвар ҳар куни кечки пайт ота-онасига тансиқ таом юборишни қанда қилмайди. Қўша-қўша кийим-кечаклар олиб берди. Уларни Умра зиёратига ҳам жўнатди.

Фақат ўзи уларни кўришга баъзан ойлаб боролмасди. Сабаби, ошхоналари ҳар куни ишлаганидан кейин ишнинг тепасида ўзи бўлмаса кўнгли тўлмасди. Ошхоналар ёпилганида вақт алламаҳал бўлар, ўзи роса чарчарди. Бу ёқда бола-чақа ташвиши дегандай. Лекин ҳар эрталаб кўнғироқ қилиб, ҳол-аҳвол сўрашга одатланганди.

Бугун ҳам ҳар иккала ошхонада ишни ташкил қилиб, кўнгли хотиржам тортгач, отасига кўнғироқ қилди. Назарида падарининг гапирриш оҳангида аллақандай шикасталик бордай эди.

– Нима гап, отажон, ма-зангиз йўқми? – сўради у.

– Отдайман, ўғлим, – деди Ҳикмат ака.

– Ёки онаминг товлари қочдимми?

– Онанг ҳам яхши юрибди. – Рўзғорда бирор камчилик борми? Айтинг, ҳаммасини муҳайё қиламан.

– Худога шукур, рўзғор ҳам бадастир. Укангинг топиш-тутиши яхши.

– Нега унда кайфиятингиз йўқдай?

– Тўртта нон кўтариб келмаяпсан-ку, болам.

– Бу нима деганингиз, ота?! Ҳар куни ёрдамчиларимдан оғзингизга ёқади-ган тансиқ таомлар, сиз яхши кўрадиган патирлардан жўнатиб турибман-ку.

– Эҳ, болам-а, болам-а. Онанг билан менга энди от билан туя керакмиди. Укангинг хотини пиширган овқат билан бир бурда нонга қорнимиз тўяди. Қуруқ қўл билан бўлса ҳам, ҳар замон ўзинг келиб тур. Дийдорингга тўйиб қолайлик, ўғлим. Бизни боғлаб бермаган. Дийдор ғанимат...

Отасининг бошқа гаплари Сарварнинг қулоғига кирмади. Устидан биров гўёки бир челақ совуқ сув қуйиб юборгандай бўлди...

Бобомурод ТОШЕВ.

ОРЗУ

1979 йил. АН-2 самолёти пастлаб келди-да, ям-яшил дала узра айланиб, яна узок-узокларга равона бўлди. Ариқ бўйида ўйнаб юрган сочи жамалак қизалоқ ва бошидаги дўпписи қийшайиб турган болакай унинг ортидан орзуманд қараб қолди.



Айниқса, юзлари офтобда қорайган боланинг хаёлини самолёт бутунлай қамраб олди. Қанийди, унинг кумушранг қанотлари устига ўтириб, тоғлар ортидаги ям-яшил водийларга учиб борса! Ўша юртлардан энаси, онаси, синглисига кўп совғалар олиб қайтса! Болакайнинг хаёлини Ҳалима энасининг қақриғи бузди:

– Абдурахмон, Шоира, келинлар-уув! Думбул пишди!

Болакайлар югуриб борди. Чайланинг ёнидаги ўчоқда гуриллаб олов ёнар, қозонда эса сут биқирлаб қайнарди. Сутга солинган маккажўхори думбули ҳил-ҳил пишгани кўриниб турарди. Ҳалима эна наби-раларига аллақачон совутиб қўйган думбулларни улашди.

Сутда пиширилган, меҳр билан тайёрланган маккажўхори думбули шундай мазали бўлиб кетгандики, кичкинтойлар учун бу жуда катта туҳфа эди. Лекин болага энанинг бу туҳфаси ҳам ботмади. Уй-хаёли ўша кумушқанотда эди.

– Эна, катта бўлсам, самолётда учаманми? – Бир неча тишлари тушиб, камшик бўлиб қолган болакай энасидан сўради. Бунга жавобан эна набирасини кучиб олди.

– Айланай сендан, катта бўлсанг, албатта учасан! Узок-узокларга саёҳат қиласан.

– Бунинг учун нима қилишим керак, эна?

– Яхши одам бўлишинг керак! Одамларга яхшилик қилишинг керак!

ХИЗМАТИНГДАМАН, ЭЛИМ!

2020 йил. Халқ қабулхонасига ранги-рўйи сарғайиб кетган Наргиза исмли қиз кириб келди. Қўлида ташхис қоғози. У ота-онаси, уй-жойидан маҳрум бўлиб, кўчада қолган, олдин ҳам халқ қабулхонаси мудиринга бир неча бор ёрдам қилганди. Мудир қизнинг гапларига диққат билан қулоқ солди-да,

телефон орқали шаҳар тиббиёт бирлашмаси бош шифокори, маҳалла бошқарув кенгаши раҳбарини кабинетига таклиф қилди. Ташхис оғир эди. Қизнинг талафи жиддий касалланган.

Мудирнинг қаттиққўллиги, талабчанлигини биладиган бош шифокор бир зумда етиб келди. Унинг саволомуз қарашига жавобан «зудлик билан операция қилиш зарур» дея жавоб берди. Операцияни вилоят марказида қилиш лозимлиги, маблағ талаб этилишини ҳам таъкидлаб қўйди. Шу пайт хонага маҳалла фаолиятини мувофиқлаштирувчи кенгаш раиси кириб келди. Опа ўйланиб туриб:

– Бекорга овора бўлмайлик, бир нарса дейиш қийин, – дея ишонч-

сизлик билдирди.

Мудир ҳар иккала раҳбарга жиддий эътироз қилди. Бош шифокордан қандай бўлмасин, ордер тўғрилашни сўради. Ўзи эса куни билан изланиб, бир неча ҳомий топди. Шундан кейин вилоят соғлиқни сақлаш бошқармасига кўнғироқ



қилиб, эҳтиёжманд қизни операция қилишда ёрдам кераклигини маълум қилди. Операция муваффақиятли ўтди.

Орадан уч йил ўтди. Ширин шаҳридаги тўйхоналардан биридаги никоҳ маросими ўта қизгин кечди. Келин бўлмиш Наргиза очилиб кетган, юзлари бахтдан гулгун ёнарди...

Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ.





К Международному женскому дню – 8 Марта

ЦЕЛИТЕЛЬНАЯ СИЛА ЖЕНСКИХ РУК

Здоровье человека бесценно! Его невозможно приобрести ни за какие сокровища мира, лишь медицинские специалисты, оснащенные новейшей технической аппаратурой и самое главное – имеющие опыт, знания и навыки, буквально вершат чудеса, возвращая пациентов к нормальной полноценной жизни.



На страже здоровья сотрудников органов внутренних дел, членов их семей и ветеранов ОВД стоят медицинские работники Центральной поликлиники МВД Республики Узбекистан. Коллектив учреждения

сплоченный, дружный, состоящий из профессионалов своего дела. Приятно отметить, что основную часть медперсонала составляют женщины. Все они трудятся во благо мира и спокойствия в стране,



возвращая утраченное здоровье блюстителям правопорядка. Несмотря на нелегкий труд, полный забот и тревог за здоровье пациентов, они остаются прекрасными, обаятельными, что особенно ощутимо накануне замечательного весеннего праздника – Международного женского дня 8 Марта.

– Представительницы прекрасной половины человечества – матери, жены, сестры, терпением, любовью и нежностью поддерживающие семейный очаг, особо трепетно относятся к чужой боли, переживают за каждого пациента сердцем и душой, – говорит начальник Центральной поликлиники МВД Республики Узбекистан полковник Феруза Гуля-

мовна Закирова. – Женские руки, излучающие доброту, жизненную энергию и силу, словно отталкивают болезнь, не дают недугу подкосить человека. Все что в наших силах – а это профессионализм и умение, мы отдаем во благо здоровья, и я считаю это делом огромной важности и значения. В эти весенние дни, в преддверии женского праздника я хочу от всей души поздравить милых женщин, пожелать им крепкого здоровья, неувядаемой красоты и семейного благополучия! Пусть сбудутся все наши мечты, а о здоровье стражей порядка мы позаботимся!

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент «На посту».

ГЛАВНОЕ – БЛАГОПОЛУЧИЕ И СЕМЕЙНОЕ СЧАСТЬЕ

8 марта многие женщины принимают поздравления, цветы и подарки на рабочем месте. Среди них и сотрудницы ОВД, которым форма, погоны, звездочки и звания не мешают оставаться женственными, нежными, любящими женами, мамами, дочерьми.

Мафтунахон Нажмидинова – выпускница факультета педагогики Андижанского государственного университета с будущим супругом, Илхомжоном, познакомилась еще студенткой. Молодые люди полюбили друг друга, поженились. У них родились две малышки. Сегодня старшей, Имонахон, – 6 лет, а младшей, Хадичабегим, – 2 года. Девочки посещают детское дошкольное учреждение «Пахтаой» УВД Андижанской области.

После окончания вуза Мафтунахон задумала осуществить мечту – стать сотрудником органов внутренних дел. Необходимо было получить согласие супруга, который остался работать преподавателем в университете. Илхомжон одобрил ее выбор. Затем последовали длительные беседы с родителями своими и

супруга. Получив «добро», Мафтунахон поступила на службу. Молодую сотрудницу назначили старшим инспектором по вопросам женщин отделения профилактики правонарушений Балыкчинского РОВД. Начались служебные будни. Наставник начинающей сотрудницы – начальник отделения профилактики правонарушений майор Иномжон Ибрагимов делился с ней навыками ведения документации, строевой подготовки, умением общаться с гражданами. Вот уже больше года лейтенант Мафтунахон Нажмидинова работает самостоятельно.

– В конце прошлого года инспектор профилактики одного из участков привел на прием молодую женщину, назовем ее Барно, – рассказывает М. Нажмидинова. – Она подвергалась домашнему насилию. Несмотря



на то, что в молодой семье было два несовершеннолетних ребенка, свекровь, ревнуя к невестке единственного сына, оказывала на нее сильное давление. Она жаловалась сыну, что Барно неуважительно относится к ней, плохо ухаживает за детьми, неважно готовит пищу, не убирается в доме. Супруг верил словам матери и бил жену.

Вместе с территориальным инспектором профилактики мы побывали в этой семье. Факты, указанные в заявлении пострадавшей, подтвердились. Беседы

со свекровью ни к чему не привели, она стояла на своем – невестка неряха. Прежде чем выдать охранный ордер, мы предупредили домочадцев, что если они будут продолжать насилие, то им придется отвечать по закону. Я оставила Барно свой номер телефона. Она позвонила через несколько дней, рассказала, что на грани нервного срыва. Было принято решение направить Барно с детьми в Андижанский областной Центр социально-правовой поддержки женщин и их семей «Мехримиз сизга».

В результате совместной работы Барно вернулась в семью, поступила в медицинский колледж, в свободное время подрабатывает в аптеке, которая принадлежит родственникам. Дети ходят в детское дошкольное учреждение. После того как невестка начала учиться и зарабатывать, свекровь успокоилась. Постепенно в семье все наладилось.

Подобных историй немало. В 2022 году женщинам, пострадавшим от семейного насилия, было выдано 149 охранных ордеров. Работа в этом направлении продолжается.

– В будущем мечтаю быть следователем, – делится Мафтунахон. – В этом году планирую поступать на заочное отделение Академии МВД.

Желаю всем женщинам нашей Родины мира, благополучия, семейного счастья и любви!

Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент
«На посту».

На снимке: старший инспектор по вопросам женщин Балыкчинского РОВД лейтенант М. Нажмидинова.

Фото автора.

Андижанская область.



Salomatlik saboqlari

XUSH IFORLI
RAYHON

Taomga o'zgacha maza beruvchi rayhon o'simligining o'ziga xos yoqimli, xushbo'y va ishtaha qo'zg'ovchi hidi kuchli bakteritsid ta'sirga ega bo'lgan efir moylari miqdori ko'pligi bilan izohlanadi. Bu o'simlik tarkibidagi vitaminlar qon quyulishiga yo'l qo'ymaydi.



Doimiy horg'inlik, charchoq, jiz-zakilik, ruhsizlik kayfiyatini yengishni istasangiz, rayhonni choy kabi damlab iching. Shunchaki uni bir stakan qaynagan suvga solib, 15–20 daqiqa dam bering. Ichimlikni limon bo'lagi, qand yoki asal bilan kuniga 2 mahal iste'mol qilsangiz tez orada kuch-quvvingiz oshganini his etasiz.

Ushbu tabiiy dorivor ko'kat organizmga zarar yetkazmagan holda, og'iz bo'shlig'idagi mikroblarni 99 foizgacha yo'q qilish xususiyatiga ega. Agar lunj, til, milklarda kichik jarohatlar bo'lsa, rayhon

ularning tezda bitishiga xizmat qiladi. Shuning uchun stomatit yoki angina vaqtida og'izni rayhon damlamasi bilan yaxshilab chayish yoki yangi uzilgan barglarini chaynash ijobiy natija beradi. Bundan tashqari, rayhon qaynatmasi ko'ngil aynishi va qayt qilishni to'xtatadi.

Mazkur xushta'm o'simlik ovqat hazm qilish va ozuqaviy elementlarni o'zlashtirish jarayonini kuchaytiradi. Rayhon ko'kati ichaklar mikroflorasini me'yorlashtiradi, qaynatma va damlamasi qorin dam bo'lishi va turli spazmlarda, kolit va gastritda yordam beradi.

BODRING VA POMIDOR
SHARBATI QON BOSIMINI TUSHIRADI

Ba'zan qon bosimi kutilmaganida oshganida, bizda unga qarshi dori vositalari bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda bodring sharbatidan foydalanish qo'l keladi. Buning uchun bodring suvini teng miqdordagi mineral suvga qo'shib iste'mol qilish yaxshi natija beradi. Xohishga ko'ra yalpiz va apelsin bo'lagini ham qo'shish mumkin. Bunday ichimlik ko'tarilgan qon bosimini tushirishga xizmat qilib, natijada inson o'zini yaxshi his qila boshlaydi.



Qon bosimi oshganida yordam beruvchi yana bir foydali ichimlik pomidor sharbatidir. U qon bosimini bir tekis, ammo tez tushishiga xizmat qiladi. O'tkazilgan tadqiqotlar bu ichimlik sistolik va diastolik bosimni hamda zararli xolesterin miqdorini kamaytirishini ko'rsatdi. Olimlarning fikricha, bu kaliy miqdori bilan bog'liq. Pomidor sharbatida bu modda ko'p miqdorda mavjud bo'lib, u organizmdan suyuqlikni me'yorida chiqarishga yordam beradi. Kaliyga boy mahsulotlar yetarlicha iste'mol qilinmasa, organizmda to'planadigan suyuqlik ichak devorlarini qisib qo'yadi va qon bosimi ko'rsatkichlarini oshiradi.

Mutaxassislar qon bosimi tez-tez ko'tarilib turadigan insonlarga bunday sharbatlar iste'moli bilan kifoyalanmay, bundan tashqari, sho'r va yog'li taomlardan uzoq turishni ham maslahat berishadi.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.



Tayyorlashdan oldin bodring po'stini archib tashlash tavsiya etiladi. Chunki bu mahsulotning qayerda va qanday sharoitda o'stirilgani noma'lum. Sabzavotning po'st qismida o'g'it tarkibiga kiruvchi nitratlar va kimyoviy moddalar to'planishi mumkin.

Насморк, чихание, кашель, зуд – для многих приход весны ассоциируется с этими неприятными симптомами. Аллергия впервые может проявиться в любом возрасте, все зависит от генетической предрасположенности человека и внешних факторов – условий жизни, состояния экологии. Чем старше становится человек, тем меньше выраженность аллергических реакций.

Реакция на цветение. Если симптомы сезонной болезни проявились первый раз, надо:

- исключить инфекционное заболевание;
- обратиться к аллергологу, чтобы он назначил препараты для подавления аллергических реакций во время цветения;
- когда сезон цветения окончится, провести кожные аллергопробы, чтобы определить причинно-значимый аллерген.

В это время лечение направлено на снятие симптомов аллергии. Используются лекарства, подавляющие аллергические реакции, – антигистаминные препараты, топические глюкокортикостероиды. Но самое главное лечение проводится вне периода цветения.

Реакция на пыль – иммунная система организма реагирует на раз-



АЛЛЕРГИЯ

личные вещества, содержащиеся в пыли. В ней могут находиться споры грибов, перхоть животных, шерсть, частицы кожи человека и разные микроэлементы. Кроме того, в ней живут микроскопические клещи.

Чтобы побороть этот вид аллергии, надо:

- часто проветривать помещения, а также подушки, простыни и матрасы;
- постоянно удалять пыль из помещений и с поверхностей, по возможности, пользуясь пылесосом.

Как справиться с аллергией
в домашних условиях

Нам кажется, что пик аллер-

гии уже прошел, в реальности же природа продолжает цвести, и аллергия нас не «отпускает». Наряду с аптечными лекарствами неприятные симптомы можно облегчить с помощью натуральных средств. Они не имеют побочных эффектов и найдутся в каждом доме.

Кожный зуд и дерматит. Если чешется тело, примите холодный душ: он сужает кровеносные сосуды и через кожу начинает выделяться меньше веществ, вызывающих раздражение. Принесут облегчение ванны с успокаивающими и заживляющими травами: ромашкой, чередой, душицей, крапивой. После душа нанесите на пораженные

участки кожи алоэ вера (свежий сок, гель или крем) или оливковое масло.

Насморк и ринит. Если вы чихаете, заложен и чешется нос, то первая помощь – полоскание носоглотки. Для этого можно использовать спрей с морской водой или приготовить жидкость дома. Для этого надо поставить на огонь 1 литр чистой воды. Когда закипит, добавить 1 чайную ложку крупной морской соли и оставить на огне на 3 минуты; затем остудить и перелить в стеклянную бутылку. Наклоните голову вбок над ванной и с помощью специального чайничка («нети») или большого шприца (без иглы) вливайте раствор в одну ноздрю и выводите наружу через вторую. Повторите процедуру наоборот.

Конъюнктивит. Если чешутся и слезятся глаза, поможет холодный компресс из смоченного ледяной водой полотенца или полежавших в морозильнике металлических столовых ложек. Приготовьте противовоспалительный и обеззараживающий раствор: в 0,5 л воды добавьте 3 капли эфирного масла ромашки. Намочите ватные диски и приложите к векам на 10 минут. Также можно протереть глаза соком алоэ.

Однако важно помнить, что натуральные средства не помогут вылечить аллергию! **Обязательно обратитесь за консультацией к врачу-аллергологу.**

✓ К Международному женскому дню – 8 Марта



Тамара МИРОНОВА,
член Совета ветеранов МВД
Республики Узбекистан,
подполковник в отставке.

Неутомимые и трудолюбивые!

Жизнь быстротечна, и каждый прожитый день становится историей. События сменяются одно за другим, и в потоке времени мы становимся старше и мудрее, приобретаем бесценный опыт. Очень важно ценить и уважать тех, кто, не считаясь с трудностями и капризами судьбы, шел по пути справедливости, вносил достойный вклад в развитие и процветание общества.

Много самоотверженных и трудолюбивых женщин, патриотов нашей Родины, трудились и трудятся в системе МВД, во всех подразделениях органов внутренних дел. Они стоят на страже правопорядка, выполняют организационную работу, трудятся в медицинских учреждениях сферы. Неутомимые и трудолюбивые, они посвятили свою жизнь делу сохранения мира и правопорядка, оставаясь при этом замечательными мамами, дочерьми, сестрами, женами.

Хочется от всей души и чистого сердца поздравить с праздником Бэллу Дорогинину, Умиду Холматову, Тину Веселову, Венеру Исмаилову, Зою Мьялькаеву, Зухру Муксимову, Ларису Дурель, Розу Саидову и многих других прекрасных женщин, своим беззаветным и ратным трудом заслуживших искренний почет и уважение.

Пусть судьба пошлет вам долголетие, крепкое здоровье и исполнение всех самых заветных желаний!

КОЕ-ЧТО НОВЕНЬКОЕ О НАШЕМ МИРЕ

У каждого из нас были моменты, когда мы совершали для себя открытия, делившие жизнь на «до» и «после». Окружающий нас мир и даже привычные вещи могут таить немало секретов, даже мудрецам и старцам не под силу знать о них все. Причем нередко занятные и интригующие факты мы узнаем совершенно случайно. Вот, некоторые из них.



А вы знали, что практически у каждого кулера для воды внизу есть мини-холодильник?

* * *

Звук отсчитывания денег в банкомате — это всего лишь запись.



* * *

Оказывается, в зоопарках устанавливают зеркала в загонах с фламинго и други-



ми птицами для того, чтобы животным казалось, будто их стая больше, чем есть на самом деле.

Дело в том, что многие птицы не очень хорошо размножаются в небольших стаях. С помощью этого визуального трюка работники зоопарков помогают пернатым увеличить потомство.

* * *

Во сколько лет вы узнали, что крышки от детских пюре идеально крепятся друг к другу и служат конструктором?



Стекло на дверце духовки можно помыть изнутри. Специально для этого там есть щель.

* * *

Коллектив Объединенной редакции МВД Республики Узбекистан выражает искренние соболезнования заместителю главного редактора капитану Азизе Боходировой в связи с кончиной ее отца

Исроила Каримовича ЭЛМУРАДОВА.

ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ (с 13 по 19 марта)



Овен. Будьте осмотрительнее при контактах с людьми. Не следует рассказывать о подробностях личной жизни знакомым или случайным попутчикам. На выходных могут напомнить о себе хронические заболевания спины и суставов. Не стоит поднимать тяжести.



Телец. Удастся достигнуть важной договоренности на работе. Возможно, услышите хорошую новость, которая окажет положительное влияние на ваши планы. Между тем старайтесь быть внимательнее при обращении с наличными деньгами. На выходных не планируйте посещение торжественных мероприятий.



Близнецы. Вы можете столкнуться с новыми обстоятельствами, придется в чем-то пересматривать стратегию действий, прежде всего в профессиональной деятельности. Это благоприятное время для проведения профилактических процедур, направленных на предотвращение хронических заболеваний.



Рак. Наиболее удачно складывается первая половина недели. Активизируется общение в интернете и во время поездок. Возможно, вы познакомитесь с интересными людьми, которые многому вас научат. Особенно это относится к тем, кто ищет людей, на которых можно равняться.



Лев. Будете чаще сталкиваться с напряженными ситуациями. Актуальная тема недели – имущество и финансы. Используйте первую половину недели для решения денежных вопросов. Возможно, близкие родственники окажут вам материальную поддержку и возьмут на себя часть расходов на содержание семьи.



Дева. В первой половине недели рекомендуется заниматься урегулированием отношений в семье. В целом отношения с окружающими людьми складываются гармонично. В середине недели не следует вступать в споры или идти на открытые конфликты: это может нанести ущерб вашей репутации.



Весы. В первой половине недели рекомендуется вносить коррективы в структуру питания. Возможно, вы узнаете о новой диете, которую тут же захотите опробовать. Успешно сложатся профилактические процедуры. В середине недели следует осмотрительнее обращаться с лекарствами и химическими препаратами.



Скорпион. Все складывается удачно. Главное – не останавливаться на достигнутом и подходить к решению любых вопросов творчески, с фантазией. Первая половина недели усилит педагогические таланты. На выходных рекомендуется воздержаться от посещения развлекательных мероприятий.



Стрелец. Рекомендуется найти время и место для уединения. Возможно, вы захотите что-то изменить, скорректировать отношения с близкими родственниками и семьей. Свою энергию можно с успехом направить на благоустройство дома, приобретение вещей для создания комфорта и уюта.



Козерог. В первой половине недели предстоит много интересного общения. Усилится потребность в контактах с друзьями и знакомыми. Вы можете познакомиться с интересным человеком, который на многое откроет вам глаза. Успешно сложатся загородные поездки.



Водолей. В первой половине недели обстоятельства складываются благоприятно для решения финансовых проблем. А вот с четверга по воскресенье есть риск понести материальные убытки. Старайтесь не вступать в споры с влиятельными и авторитетными людьми: это не сулит вам успеха.



Рыбы. Неделя складывается успешно. Усилятся ваши интеллектуальные способности. Возможно, вы решите пересмотреть некоторые свои взгляды на жизнь. Это подходящее время для усиленной внутренней работы над собственными ошибками и их исправлением.

Бир қўшиқ тарихи

НОВДАЛАРНИ БЕЗАБ ҒУНЧАЛАР...

Муҳаббат Шамаева. Бу номни эшити-шингиз биланоқ, мухлислар қалбидан жой олган, бир-бирдан дилбар «Ўрик гуллаганда», «Гул диёрим», «Кўчалар», «Уяламан», «Тошкент наҳори», «Бухоро», «Келди тонг билан бир наво...», «Кўзларимга зиё оламан» ҳамда форс, рус ва озар тилидаги бошқа қўшиқлари билан танилган санъаткор қиёфаси намоён бўлади.

Айниқса, «Новдаларни безаб ғунчалар...», дея ширали овози билан борлиққа баҳор келганлиги ҳақида мужда берадиган қўшиқ ихлосмандлар юрагининг тубидан жой олган. Қарийб 56 йил олдин ижро этилган мазкур қўшиқнинг ҳамон ўз аҳамиятини йўқотмаслигининг асосий сабаби матн ва ижродаги уйғунлик, қолаверса, қишдан димикқан қалбларнинг баҳорга бўлган интиқлигида бўлса керак.

Қўшиқни тингларкансиз, атоқли шоир Ҳамид Олимжон «Ўрик гуллаганда» шеърини айнан Муҳаббат Шамаева ижро этиши учун ёзган бўлса керак, деган хаёлга борасиз...

Дунёнинг 30 дан зиёд мамлакатларида гастрол сафарларида бўлган хонандадан у ерларда яшаётган ўзбеклар

ҳозирги кунда ҳам «Ўрик гуллаганда» қўшиғини куйлаб беришини сўраши яхши қўшиқ дунёнинг қаерида бўлса ҳам, мухлислар қалбини забт эта олишининг ёрқин намуна-сидир. Ушбу гўзал тарона кейинчалик Севара Назархон, Малика Эгамбердиева ва бошқа хонандалар томонидан ўзига хос тарзда ижро этилгани унинг шухратини янада оширди.

Яҳудий хонандалар оила-сида туғилиб, катта бўлган Ўзбекистон халқ артисти Муҳаббат Шамаева болалигиданоқ форс ва ўзбек тилидаги ашулалардан ташқари, европача ва эстрада жанридаги қўшиқларни ижро этишга қизиқарди.

Ўзининг ширали овози ҳамда ўзига хос ижро услуби билан М. Шамаева 1960 йиллар ўртасида Ўзбе-



кистоннинг нуфузли мумтоз санъаткорлари – Юнус Ражабий, Берта Давидова, Коммуна Исмоиловларнинг эътиборига тушади. Унинг телевидение ва сахнадаги чиқишлари ўзбек эстрада-си қиёфасини ўзгартирди, дейиш мумкин.

Хонанданинг қўшиқ репертуаридан 400 га яқин ўзбек, тожик, яҳудий, озарбайжон, татар, турк, эрон, араб, афгон, француз, инглиз қўшиқлари жой олган бўлиб, Ўзбекистон давлат телерадиосининг олтин фондида сақланмоқда. 1990 йиллар бошларида Муҳаббат Шамаева турмуш ўртоғи ва илк устози,

мумтоз ўзбек қўшиқлари ҳамда «Шашмақом»нинг маҳоратли ижрочиси Илёс Маллаев билан Америка Қўшма Штатларига кўчиб кетади. У АҚШда яшаётганига қарамай, бухоролик яҳудий хонанда ва созандалардан тузилган «Мақоми наво» гуруҳи таркибида ўзбек ҳамда форс тилларидаги мумтоз қўшиқларни куйлашда давом этмоқда.

Унинг Раж, Наргиза ва Виола исмли уч нафар фарзанди бор. Ҳаммаси санъаткор.

М. Шамаева Тошкентда яшаган чоғида Осиё ва Африка кинофестиваллари бўлиб ўтади. Унда ҳали турмушга чиқмаганди. Ўшанда Раж Капур билан кўришиб, агар ўғил кўрса отини Раж, қиз бўлса Наргиза (ҳинд киноюлдузи Наргис шарафига) қўяман деб, ният қилган экан...

Асли исми Люба бўлган санъаткор:

– 1963 йилда «Мақомчилар» ансамблига Юнус Ражабийнинг шартларини бажарган ҳолда, ишга қабул қилиндим. Қўшиқчилар номини эълон қилишаётганида, ўша пайтдаги адабий муҳаррир, шоир Анвар Исроилов «Қизимизнинг исмларини «Любовь» деб эмас, «Муҳаббат» деймиз» – деб эфирда номимни ўзгартириб эълон қилдилар. Шундан бери халқим мени «Муҳаббат» деб танийди, – деганди интервьюларидан бирида.

*Бунда толе ҳар нарсадан мўл,
То йлғунча шу йлжада қол.
Умрида ҳеч гул кўрмай, йиглаб
Ўтганларнинг ҳаққи ҳам сенда,
Ҳар баҳорни йиглаб қаришлаб
Кетганларнинг ҳаққи ҳам сенда...»
Деразмнинг олдида бир тўп
Ўрик оппоқ бўлиб гуллади...*



ЎРИК ГУЛЛАГАНДА

*Деразмнинг олдида бир тўп
Ўрик оппоқ бўлиб гуллади...
Новдаларни безаб ғунчалар,
Тонгда айтди ҳаёт отини
Ва шаббода кўрғур илк саҳар
Олиб кетди гулнинг тотини.
Ҳар баҳорда шу бўлар такрор,
Ҳар баҳор ҳам шундай ўтади,
Қанча тиришсам ҳам у беор
Еллар мени алдаб кетади.
Майли, дейман ва қилмайман гаш,
Хаёлимни гулга ўрайман;*

*Ҳар баҳорга чиққанда яккаш,
Бахтим борми, дея сўрайман.
Юзларимни силаб, сийталаб,
Бахтинг бор, деб эсади еллар.
Этган каби гўё бир талаб,
Бахтинг бор, деб қушлар чийиллар...
Ҳамма нарса мени қаришлар,
Ҳар бир куртак менга сўйлар роз,
Мен юрганда боғларга тўлар
Фақат бахтни мақтаган овоз:
«Мана сенга олам-олам гул,
Этагинга сиққанича ол,*

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

kapitan

Mixli SAFAROV
Georgiy PETROSYAN

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
20210000600447980001.

Bank kodi 01037.

ATB

«Qishloqquyilishbank»
Sergeli bank
xizmatlari ofisi.
STIR 200637499.Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.«O'zbekiston» nashriyot-matbaa
ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi.Korxonada manzili:
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №V-5428.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50729 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.